



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI
4- BOSQICH 401-GURUX TALABASI**

AHMADJONOVA UMIDAXONNING

**«Boshlang'ich sinf musiqa darslarida ikki ovozli qo'shiqlarni
kuylash orqali o'quvchilar nafosatini shakllantirish» mavzusida**

5111100-musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish
uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ M.Nasriddinov

Andijon – 2017

MAVZU: *Boshlang'ich sinf musiqa darslarida ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash orqali o'quvchilar nafosatini shakllantirish*

REJA

KIRISH

I BOB BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA DARSLARIDA IKKI OVOZLI KUYLASHNI O'RGATISH METODIKASI

- 1.1. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining rejalashtirilishi
- 1.2. Umumta'lim maktablarida umumdidaktik prinsiplarining turlari

II BOB. IKKI OVOZLI QO'SHIQLAR KUYLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

- 2.1. Musiqa madaniyati darslarida talabalarning savodxonlik bilimini oshirish, ijrochilik qobiliyatlari, asboblarda chalib o'rganish
- 2.2. Musiqa madaniyati darslarida musiqalarni eshitish va qobliyatni o'stirish

III BOB. QO'SHIQ KUYLASH ORQALI O'QUVCHILARDA NAFOSATNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

- 3.1. Musiqa san'ati vositasidagi estetik tarbiyaning mohiyati va vazifalari.
- 3.2. Qo'shiq kuylash musiqiy – ta'lim tarbiyaning yetakchi faoliyati.
- 3.3. Boshlang'ich sinflarda qo'shiq o'rganish metodlari.

XULOSA.

ILOVA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganiga 25 yil bo'ldi. O'zbekiston o'tgan yillar ichida asrga teng o'zgarishlarni amalga oshirdi. Xalqimizning mintaliteti o'sdi, dunyoqarashi o'zgardi, turmush tarzi yangi mazmun bilan boyidi. Yurtimizda rivojlanayotgan demokratik o'zgarishlar havas qilsa arzigudek o'zgarishlar bo'layapti.

Mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Prezidenti mustaqillikning eng ustivor vazifalar sifatida mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash, o'zligimizni anglash, ota – bobolarimiz qoldirgan ummon merosiy boyliklarimizni o'z joyiga qo'yib xalqimizning ongi va shurini o'zgartirish amalga oshirib borilayotgan katta ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar qatoriga kirgizsak to'g'ri bo'ladi. Ana shu yo'nalishda eng avvalo xalqimiz ongini o'stirish, buning uchun chuqur ildizli asosga tayangan ma'aviyatimizni tiklash va barchani, ayniqsa yosh avlodni ma'naviy dunyosini ham boyitish, ham o'zgartirish, ham yuksak cho'qqilarga yuksaltirish mamlakatimiz Prezidenti da'vat qilgan eng ulug' ish bo'ldi. Natijada qisqa yillar ichida ijtimoiy va ma'naviy hayotimizning barcha jabhalarida ham katta o'zgarishlar yuz beradi.

Mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Prezidenti mana shu ma'naviyat ummonida san'atni ulkan tarbiya kuchga ega ekanligini yurtboshi sifatida ko'ra oldi va bu narsaga katta kuch va irodasini sarf etib kelyapti. San'at va inson ma'naviyati yo'nalishida Prezidentimiz 7 ta farmonga imzo chekdilarki, buning natijasi o'laroq yurtimizda san'atning barcha turlari (raqs san'ati, teatr san'ati, amaliy san'at, musiqa san'ati) katta rivojlanish yo'liga o'tdi. Birgina musiqa san'atini rivojlantirish yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak Toshkentda bino etilgan, dunyo andozalaridan kam bo'lmagan serviqor va go'zal O'zbekiston davlat konservatoriyasining yangi binosi qad ko'targanini, milliy teatr (Xamza nomli teatr) qurib tomoshabinlarga topshirilgan, musiqa san'atini ommalashtirish va jahonga yuz tuttirish yo'lida 1996 yildan boshlab «O'zbekiston – vatanim manim» respublika qo'shiq tanlovi (Bu tanlovda yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan va kasbi, e'tiqodi, ma'lumoti, millati, jinsidan qat'iy nazar, mamlakatimiz

fuqorolari ishtirok etadigan bo'ldilar), «Sharq taronalari» Xalqaro ko'rik tanlovi (Samarqand shahrida) va yana respublika meqiyosidagi ko'plab musiqa va qo'shiq tanlovlarini o'tkazilib kelinishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Shu yillar ichida yosh iqtidorli xonandalarimiz jahonning ko'plab mamlakatlariga tashrif buyurishib millionlab chet ellik san'at shinavandalarini mehrini qozondilar. Skripkachilarimiz, pianinochilarimiz, turli ansambllar, yakkaxon solist qo'shiqchilarimiz o'z san'atlari bilan dunyoni ko'rdilar. Chet ellik mehmonlarimiz ham O'zbekistonga kelib mustaqillik yillarida yurtimizda san'at va madaniyatni gurkirab o'zgarganligini, yuzlab, minglab yosh san'atkorlarni yetishib chiqqanliklarini va ular o'zlarining san'atlari bilan jonajon yurtimizni jahonga tanitib kelayotganliklarini ta'kidlab kelayaptilar.

San'at o'z tabiati bilan go'zallik, o'z tabiati bilan ma'naviyat, yuksak ma'naviyat tomon kishilarni yetaklovchi tarbiya qurolidir «So'z tugaganda qo'shiq boshlanadi» - deydi xalqimiz. Zero musiqa o'zining dilbar ohanglari bilan har qanday durdona so'zdan ham kuchli va ta'sirchan.

Musiqa ayrim kishilar aytganidek dam olish, hordiq chiqarish vositasi emas. San'at bu insonda fikr uyg'otuvchi, his – hayajonlarini bir maqsad tomon yo'naltiruvchi, kishilarni yaxshi ulug'vor ishga safarbar etuvchi, ona – Vatanimizni so'z va ohanglarda tarannum etib yoshlarda Vatan tuyg'usini uyg'otuvchi, uni o'stiruvchi ajoyib – g'aroyib mo'jiza! Buyuk Betxoven musiqani donishmandlik va falsafadan yuksakroq dil izhori – degani bejiz emas.

Sharq allomalaridan biri sanalmish Al – Kindiyning tib ilmida qilgan katta xizmati shuki, - degan edi taniqli shifokor – olim Z.Egamberdiyev, - u musiqa bilan tabobatni o'zaro aloqadorligini aniqlagan. U musiqani insonga ruhiy ta'siri ustida ko'p shug'ullangan va bu sohada jaxonshumul natijalarga erishgan Ibn Sino ruhiy kasalliklarni davolashda Al – Kindiyning musiqa bilan davolash sohasidagi ishlariga tayangan. Al – Kindiyning yozishicha, kuylar bilan gullar o'rtasida qandaydir o'xshashlik bor. Gullardan taraladigan hushbo'y ifor kishi ruhini ko'taradi, kuchiga kuch qo'shadi. Mutafakkirning musiqa va tabobatga qarshi ya'ni, doir ana shu muloxazalari hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

Qo'shiq hayot taassurotlarining kuchli tug'yoni bilan uygunlashadi. U dildan toshib chiqib tilga quyiladi va tilni o'z kuyiga solib sayratadigan yurak toshqinidir. Bu toshqin dildan va tildan chiqib o'zga dillarga va tillarga quyiladi. U orombaxsh harorat bo'lib oqadi. Bu harorat yuraklarni eltib kishiga zavq va shavq bag'ishlaydi. Yaxshi qo'shiq estetik ta'sirchanligi bilan birga ijtimoiy burchni, tarbiyaviy vazifani bajarishi va hayotiyliги bilan yaxshi qo'shiqdir.

Qo'shiqchilik san'ati o'z tabiati bilan keng ko'lamli va keng tarmoqli. Musiqiy tarbiya ham musiqa orqali odob – ahloq tarbiyasi ham asosan maktabdan boshlanadi. Maktabda o'tkaziladigan musiqa darslari va sinfdan tashqari tashkil etilib boriladigan musiqa va ashula to'garaklari alohida muhim o'rin tutadi.

Maktabda o'quvchilar musiqa, uning inson hayotida tutgan o'rni, musiqa asarlarini tinglash madaniyati, musiqa tarixi, buyuk kompozitorlar, bastakorlar hayoti bilan tanishish, musiqa savodxonligini oshirish kabi bir qator musiqiy bilim va axborotlar ko'lamini o'rganadilar va tanishadilar. Boshlang'ich sinflarning 1-2 sinflarida asosan o'rganiladigan qo'shiqlar bir ovozli qo'shiqlardan iborat bo'ladi. Uchinchi va undan yuqori sinflarda esa o'quvchilar astasekin ikki ovozli va ayrim uch ovozli qo'shiqlarni o'rganib borishlari fan dasturida ko'rsatilgan.

Ho'sh 7-8-9 yoshli o'quvchilar ikki ovozli qo'shiqlarni ijro etishlari mumkinmi? Pedagoglarimiz, soha olimlari va taniqli metodistlarimiz – “ Buning uchun musiqa ta'lim va tarbiyasini mutaxassisi olib borishi kerak. U oliy ia'lumotga ega bo'lsa, o'z kasbini sevsa, bilim va malakalarini orttirib borishga intilsa, bilim berish uslublarini chuqur o'zgartirib borsa, va nihoyat maktabda musiqiy tarbiyaga munosabat muxiti ijobiy bo'lsa albatta maqsadga erishiladi va bunga ko'plab maktab misollarini keltirish mumkin – deb ta'kidlashadi.

Chindan ham to'g'ri, chunki biz IV – kursda maktab amaliyoti o'tkazgan, salkam bir yil mobaynida ko'plab maktablardan ilg'or ish usullarini o'rgandik, o'zimiz dars o'tdik, bir – birimizni darslarimizni tahlil qildik va shunga ishondikki, 3 – 4 sinflardan boshlab nafaqat bir ovozlik qo'shiqlarni intanasion sof balki, ikki ovozli qo'shiqlarni ham bemalol o'rgatish mumkin ekan.

Mavzuning dolzarbligi: Umumta'lim maktablarining «Musiqqa madaniyati» fanini o'qitishida o'quvchilarni jamoaviy ijrochilik faoliyati muhim o'rin tutadi. Jamoaviy ijrochilik esa butun bir sinf o'quvchilarini yaxlit bir organizmga birlashtirib, o'ziga xos vokal-xor malakalarini egallash, kuylashda sof unisonga erishishi, soz, ansambllik hosil qilish va asta-sekinlik bilan taqozo etadi.

Respublikamizda musiqqa pedagogikasi bo'yicha qilingan ko'pgina ilmiy-tadqiqot, ilmiy-uslubiy ishlarda o'quvchilarni ko'p ovozli kuylashga o'rgatish, uning tashkiliy – uslubiy asoslari, ish yuritish usul – shakllari, bu jarayonda o'qituvchi faoliyatining ayrim qirralari yoritilgan. Bunga A.Sh.Hasanov, R.Qodirov, D.Solnova, Q.Mamirov I.Qudratovlarni ishlarini ko'rsatish mumkin. Biroq bu ishlarda o'quvchilarni ko'p ovozli kuylashga o'rgatishni ilk bosqichi hisoblanmay ikki ovozli kuylashga o'rgatish masalasi alohida tadqiqot muammosi sifatida o'rganilmagan. Bu esa bugungi kunda musiqqa ta'limi-tarbiyasi oldida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo sifatida bizning tadqiqotimiz mavzusini «O'quvchilarda ikki ovozli qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish» deb nomlashimizga sabab bo'ldi.

Tadqiqot maqsadi: Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilarni ikki ovozli qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishning nazariy asoslari va o'ziga xos metodik tizmini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: umumta'lim maktablarida olib boriladigan «Musiqqa madaniyati» darslari, musiqiy ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan «Boshlang'ich sinf musiqqa darslarida ikki ovozli kuylashni o'rgatishning metodik asoslari» mazmuni, maqsadga erishishi yo'lida qo'llaniladigan uslub va vositalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar.

Tadqiqot predmeti: Boshlang'ich sinf musiqqa darslarida o'quvchilarni ikki ovozli qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish mazmuni, shakl va usullari.

Tadqiqot vazifalari: Mavzuga oid ilmiy –tadqiqotlar, ilmiy – uslubiy adabiyotlarni o'rganish;

- umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari musiqqa darslarini mavjud holatini o'rganish,

- ilg'or, tajribali o'qituvchilar bilan mavzu yuzasidan suhbatlar o'tkazish, ularning tajribalarini o'rganish;
- o'quvchilarni ikki ovozli kuylashga o'rgatishning samarali ish shakl uslublarini aniqlash;
- o'quvchilarni ikki ovozli qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatni samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: O'zbekiston__Respublikasining mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasi, «Ta'lim haqida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviyat, ta'lim, san'at, tarbiyaga oid farmonlar, asarlari, ma'ruzalari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining shu yo'nalishdagi Qarorlari, shuningdek, o'rta asr sharq allomalari, taniqli olimlar, san'at arboblari, ilg'or pedagoglarning mavzu yo'nalishidagi fikr va qarashlari; mustaqillik yillarida O'zbekiston__olimlarining san'at va tarbiya mavzularida bajargan ilmiy tadqiqotning xulosalari, natijalari va nihoyat O'zbekistonning mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasi, adabiyot, san'at va tarbiya konsepsiyalariga tayanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: 1. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchilarni ikki ovozli qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishning o'ziga xos nazariy uslubiy asoslari aniqlandi va umumlashtirildi;

2. O'quvchilarni ikki ovozli qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali tizimi ishlab chiqiladi;

3. O'quvchilarni ikki ovozli qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish usul, shakllari, vositalari va ularning samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasida umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarining «jamoaviy ijrochilik» faoliyatini tashkil qilishda, o'quvchilarni ikki ovozli kuylash malakalarini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Ulardan umumta'lim maktablari musiqa

darslarida, bolalar xor jamoalari bilan ishlash jarayonida ijodiy foydalanish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy» dasturi, Umumiy o'rta ta'limning musiqiy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim Standarti va o'quv dasturi, Prezident I. Karimovning ta'lim tarbiyaga oid asarlari, ma'ruza va nutqlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar, shuningdek pedagogik, psixologiya, san'atshunoslikka oid manbalar.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 4 paragraf, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I – bob. BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQA DARSLARIDA IKKI OVOZLI KUYLASHNI O'RGATISH METODIKASI

1.1. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining rejalashtirilishi

O'quvchilar musiqa madaniyatiga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart;

- har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish;

- Farg'ona – Toshkent, Samarqand – Buxoro, Surxandaryo – Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlari (doston, kata ashula, yallachilikni) bilish, ularning mashhur ijrochilarini bilish;

- O'zbekiston_hududida mumtoz musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish;

- ikki ovozli qo'shiqlarni sof ohangda kuylash, major uch tovushligidan minor uch tovushligiga mustaqil kuylab o'tiolish;

- kuylashda forte va piano dinamik tuslarini bajarish, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay bilish;

- mashhur qo'shiq va ashulalar, yor – yorlar hamda mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish;

- kuylash va tinglash madaniyatiga ega bo'lishi;

- musiqa naqadar qadimiy san'at ekanligi, o'zbek xalq musiqasining ildizlari uzoq davrlarga taqalib, asrlar, yillar davomida sayqal topib, rivojlanib kelganligi, shu bois xalqimizning boy madaniyatini, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirishni va nihoyat, o'zbek milliy musiqamiz umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi ekanligini tasavvur qila olish.

2. Musiqa fanidan boshlang'ich sinflar uchun dastur talablari.

Ushbu dastur O'zbekiston_Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun

musiqadan davlat ta'lim standartlari talabalari asosida tuzilgan bo'lib, Respublika ta'lim markazi «Musika ta'limi bo'lishi va yoshlar o'rtasida madaniyatni targ'ibot etish» bo'limi ilmiy – metodik kengashi yig'ilishining 1999 yil 9 aprel 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan (nashrga tavsiya etilgan).

Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston Respublikasida keyingi o'illarda muhim siyosiy – ijtimoiy o'zgarishlar ro'y beradi. Xususan «Ta'lim to'g'risida» qonun qabul qilinib, to'qqiz yillik umumiy o'rta ta'lim tizimi joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlari, shu jumladan musika predmeti bo'yicha ham yangi o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu holatlar milliy musika ustivorligi nuqtai nazardan qayta ishlab chiqilgan mazkur dasturda ham o'z aksini topdi.

Jumladan, yangi dasturning tayanch nuqtalari quyidagilar bilan belgilanadi: avvalo, saboqda musikaning muayyan mohiyatini tushinishga yordam beruvchi darslarning muayyan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi. Ikkinchidan, musika tinglash, qo'shiq kuylash va musika savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi bo'lib emas, balki dars mavzuini ochib beruvchi musika faoliyati sifatida qabul etiladi. Uchinchidan, dars mavzusining qiziqarli bo'lishi va ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida raqs va musiqali – ritmik harakatlar, chapakda va bolalar cholg'u asboblari – shiqildoq, doiracha, qoshiq va boshqalarda musiqaga jo'r bo'lish hamda musika ijodkorligi kabi yangi musika faoliyatlari qo'llaniladi. Ushbu faoliyatlar zamirida o'yin hususiyatlari mavjudligi tufayli ular o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Binobarin, mashg'ulotlarda qo'llaniladigan barcha musika faoliyatlari dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bo'lagi sifatida xizmat qiladi. Bu jihatdan «Musika madaniyati» predmeti kompleks (integral - aralash) dars tipiga kiradi va unda darsning umumiy mavzuiga bo'ysunuvchi, o'zaro mantiqan bo'linuvchi quyidagi musika faoliyatlariga amal qilinadi: musika idroki (tinglash), kuylash, musika savodi, raqs va ritmik harakatlar, chapakda va cholg'ularda chalish, musika ijodkorligi va boshqalar.

Musiqqa idroki dars mashg'ulotlarida yetakchi faoliyat sifatida muhim o'rin tutadi. U ikki holatda amalga oshadi. Birinchi holatda – ma'lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy jihatlari dars mavzuiga doir oddiy musiqiy – pedagogik yo'sinda tavsif etiladi. Tinglash orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida ma'lum bilimlarga ega bo'linadi. Ikkinchi holatda musiqqa asarlari avval tinglanib, so'ng u yoki bu holati ko'proq kuylash orqali o'rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalaniladi. Masalan, o'rganiladigan qo'shiq avval qo'ituvchi ijrosida yoki magnit tasmasi orqali bir – ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suhbat qilinadi, so'ng o'rganishga kirishiladi. Raqs musiqasi avval tinglanadi, kuy tavsiflanadi va anglab olingandan so'ng, raqs harakatlari ifodasi o'rganiladi. Ko'pincha asar bir necha faoliyat uyg'unligida (tinglash, kuylash, raqs harakati va b.) o'rganiladi. Bunday mahsulot usuli asarni puxta o'rganishi va ayni holda kompleks malakalarning rivojlanishi uchun imkon yaratadi. Musiqqa darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zamirida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Musiqqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy jihatdan birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, kuylarini kuylash, raqs va b.) qo'llanmasini, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlarini bilish haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqqa savodi faoliyatida o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim – tushunchalari majmuini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Shuni alohida takidlash zarurki, musiqqa idroki va musiqqa faoliyati o'zaro uzviy bog'lanishi bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi. Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqqa – o'quv qobiliyatini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonid o'quvchi o'z ovoz – ijrosini boshqaradi, o'rtoqlarining ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan bahamjihat jo'rnavoqlik qilishga intiladi.

Zotan, tinglash va kuylash, o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan birga, cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish va musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlarini yaratadi.

Darsdagi dasturda raqs va musiqali harakatlarga alohida o'rin berilgan. Bu faoliyatlar o'quvchilar musiqiy qobliyatlarini, xususan, ritm – usul tuyg'usi va asar badiiyyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir.

Shu bois, musiqa o'qituvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilish (ijro eta olishi) va darsda qo'llash usullarini puxta egallashi bugungi davr talabidir. Chapakda va cholg'u asboblari chalish faoliyati ham, raqs va musiqali harakatlar singari, o'quvchilarning musiqiy hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblari bilan tanishishi va ularning tovush templarini anglab olishi bilan o'zviy bog'lanib amalga oshirish zarur. Bunda doirachalar, qayroq, kichik safoillar kabi urma cholg'u asboblari foydalanib, o'qituvchi ijrosi va maginitafon tasmasi orqali taraladigan kuylarga ritmik jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi.

Musiqa ijodkorligi faoliyati dasturga ilk bor kiritilmoqda. Bu faoliyat bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakalarini o'stira borish uchun katta ahamiyatga egadir. Bu faoliyat o'qituvchi ijrosiga doira chertib jo'rnavozlik qilish, sinf ijrosiga dirijyorlik qilish, kuy ohangiga mos harakatlarni xususan, raqs harakatlarini topish, she'r parchasiga kuy bastalash kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi. Bu faoliyat sinfdagi iqtidorli o'quvchilar e'tiborini kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish va badiiy rivojlantirish uchun ayniqsa muhimdir. Musiqali harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o'yin uslublaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar zamiri ko'proq o'yin xususiyatlari bilan boqliq. Dasturda tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajisida berilgan. Bu o'quvchiga asarlarni sinf imkoniyatlari va o'quv yilining muhim sanalariga muvofiq tarzda tanlab o'qitish

imkoniyatini beradi. Ayni bir paytda o'quvchi dasturga kiritilmagan, ammo badiiy yuksak, tarbiyaviy jihatdan muhim vao'quvchilar idrok – amaliyotiga mos bo'lgan yangi asarlardan keng foydalanish huquqiga ham egadir.

Nota savodi, cholg'uchilik, raqs va harakatlar, shuningdek, musiqa ijodkorligi faoliyati mashg'ulotlar mazmunida tavsif etilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab ularning almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rejalashtirishda va darslarga tayyorgarlik ro'rishda ijodiy yondashishni taqozo etadi. Bunda shu narsaga e'tiborni kuchaytirmoq lozimki, garchi dasturda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni ham, har bir faoliyat turiga doir alohida – alohida ko'rsatilgan bo'lsada, ammo darslarni rejalashtirishnida va ularni o'tishda musiqa faoliyatlari dars mazmunidan kelib chiqish va uning mohiyatini ochib berish lozim bo'ladi. Shunday qilib, darsda musiqa faoliyatlari mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni arkib toptiradi.

Dastur yakunda yil davomida musiqa ta'lim mazmunidan o'quvchilarning olishi zarur bo'lgan bilim va malakalar me'yori bayon etilgan. Bu shu kunlarda ishlayotgan musiqa ta'lim tarbiyasi davlat standarti o'lchamining ilk qadami bo'lib, ta'lim jarayonida bilim va malaka ko'nikmalarining aniq mezonlariga asoslanib ish tutishga imkon beradi. Mazkur dastur maktab amaliyotida o'zini qay darajada oqlaydi, buni vaqt va hurmatli o'qituvchilarimizning tajribalari ko'rsatadi.

Biz faqat shu narsani ta'kidlamochimizki, qaysi va qanday o'quv dasturi qo'llanilmasin, musiqa darslarining muvaffaqiyatlari savodxon, chuqur bilimli, o'z kasbiga fidoiy bo'lgan o'qituvchi shaxsiga bog'liq.

Mazkur darsning o'quv mazmuni, o'qitish uslubi, darslarning taxminiy rejalashuvi, namunaviy darslar ishlanmasi hamda o'quv asarlari xrestamatiyasi endi nashr etiladigan o'quv metodik qo'llanmalarda beriladi.

Musiqqa madaniyati
1-4-sinf, haftasiga 1 soat

№ mavzu nomi	Ajratilgan soat	Izoh
11-sinf	Yil mavzusi: Biz musiqani sevamiz Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar Musiqai o'yinlar va qo'shiqlar Xushnavo cholg'ularimiz Xushnavo cholg'ularimiz	34 soat 9 soat 7 soat 10 soat 8 soat
2-sinf	Yil mavzusi: Ijrochilik turlari musiqaning ifoda vositalari. Yakkanavolik, jo'rnavozlik va jo'rsozlik Yakkanavolik va yakkaxonlik cholg'ular va xonandalar dastalari «Dasta turlari. Kuy nima? Kuyda nimalar ifodalanadi? Musiqaning ifoda vositalari»	34 soat 9 soat 7 soat 10 soat 8 soat
3-sinf	Yil mavzusi: Musiqaning ifoda vositalari. «Musiqaning ifoda vositalari» musiqqa nutqi xor va orkestr musiqaning tuzilishi oddiy musiqqa shakllari. Band va naqorat.	34 soat 9 soat 7 soat 10 soat 8 soat
4-sinf	Yil mavzusi: O'zbek xalq musiqqa ijodi. Xalq aytimlari va cholg'ulari Bayram va marosim qo'shiqlari Mavsum qo'shiqlari Bahor fasli qo'shiqlari	34 soat 9 soat 7 soat 10 soat 8 soat

Birinchi sinf

Yil mavzusi: «Biz musiqani sevamiz»

1 – chorak. Mavzu: «Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar».

Musiqqa tinglash.

1. «O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi». Musiqqa tinglash. A.Oripov she'ri, M.Burhonov musiqasi.
2. «Kuz» A.Ro'zimuhamedov she'ri, S.Abramova musiqasi.
3. «Chertmak». O'zbek xalq kuyi. (Yakka duto ryoki dutorchilar ansambli).
4. «Andijon polkasi». O'zbek xalq kuyi.
5. «Olma pishganda galing». Xorazm xalq qo'shig'i.
6. «Yurish marshi». F.Naxarov musiqasi
7. «Dilxiroj». O'zbek xalq kuyi.
8. «Do'loncha». O'zbek xalq kuyi.
9. «Olmacha anor». O'zbek xalq kuyi.
10. «Alla» I.Akbarov musiqasi.

Jamoa bo'lib kuylash.

1. «Pianino». M.Zayniddinova she'ri, J.Najmitdinov musiqasi.
2. «Salom maktab». P.Mumin she'ri, Sh.Yormatov musiqasi.
3. «Chitti gul». O'zbek xalq qo'shig'i.
4. «Salom bergan bolalar». P. mumin she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.
5. «Qo'g'irchog'im». S.Abramova musiqasi.

Musiqqa savodi.

Musiqqa tovushlari. Baland va past tovushlar («Pianino», «Davra raqsi», «Qushcha va o'rdak» va boshqalar). Uzun va qisqa tovushlar (aytim mashqlari, «Chittigul», «Birinchi qo'ng'iroq» va boshqalar).

Cholg'uchilik, raqs va harakatlar.

Chapak chalib, musiqqa ritmik jo'r bo'lish («Andijon polkasi», «Chertmak», «Do'loncha», «Olma pishganda galing» va boshqalar).

Raqs tushish (raqsona kuylarga).

Musiqqa tovushlarining baland va pastligini qo'l harakatlarida (yuqoriga va pastga ko'tarib, tushirib) ifodalash (aytim mashqlari, «Andijon polkasi», «Chittigul», «Pianino» va boshqalar).

Musiqqa ijodkorligi.

Doira usullarini ovozda imitatsiya qilib kuylash («Bum-bak», «Bum-ba-ka», «Bak-ka bum» va boshqalar). O'qituvchi ijrosida doira usullari imitatsiya bilan boshqarish («Bum bak-bak, bum-bak», «Do'loncha»).

Yangi raqs harakatlarini topish («Do'loncha» va boshqalar). Sinf konserti.

II – chorak

Mavzu: «Musiqali o'yinlar va qo'shiqlar».

Musiqqa tinglash.

1. «O'zbekiston Davlat Madhiyasi». Abdulla Oripov she'ri, M. Burhonov musiqasi.

2. «Qo'g'irchog'im, o'yinchog'im». B.Botirov she'ri, Avaz Mansurov musiqasi.

3. «Yangi tanovar». M.Mirzayev musiqasi.

4. «Asl bo'laman», O'zbek xalq kuyi.

5. «Ufori». O'zbek xalq kuyi.

6. «Oq terakmi, ko'k terak». Xalq bolalar qo'shig'i.

7. «Jamalagim». O'zbek xalq kuyi.

Jamoa bo'lib kuylash.

1. «Kichkintoyimiz, gijingtoymiz». P.Mo'min she'ri, K. Kenjayev musiqasi.

2. «Baxti erkatoiy». X.Muhammad she'ri, T.Toshmatov musiqasi.

3. «Paxtaoy». I.Ilhomov she'ri, F.Nazarov musiqasi.

4. «Etikcham». Qambar ota she'ri, D.Omonullayeva she'ri.

5. «Do'ppi kiygan bolalar». N.Norxo'jayev musiqasi.

6. «Salomat». I.Akbarov musiqasi.

7. «Sho'x qizaloq». P.Mo'min she'ri

Musiqqa savodi.

Baland – past va uzun – qisqa tovushlar (Ayrim mashqlari, «Bahor keladi», «Qurbaqa va Lola», «Oq terakmi, ko’k terak» va boshqalar).

Baland, past, o’rta tavushlar («Jamalagim», mashqlar).

Tovushlar baland pastligini zinachalar ifodasida tasvirlash, uni Do major tovush qatorida kuylab ifodalash. Kuy yo’nalishini grafik chiziqlarda tasvirlash va kuylab ifodalash («Oq terakmi, ko’k terak», aytim mashqlari, «Pianino»). Ijrodagi registr va ijro suratini anglash («Qurbaqa va Lola»).

Cholg’uchilik, raqs va harakatlar.

Chapak va shiqildoqlar chalib, o’qituvchi ijrosiga ritmik to’r bo’lish («Aslbo’laman», «Bahor keladi» va boshqalar).

Kuy registrini (tovushlar baland pastligini qo’l harakatlari ifodasida ko’rsatish (mashqlari, «Etikcham», «Jamalagim»).

Mari musiqasida qadam tashlash («Marsh») raqs tushish («Asl bo’laman», «Bahor keldi»).

Musiqqa ijodkorligi.

Baland va past tovushlar (topib ovozda kuylash). Ularni uzun va qisqa tovushlarda kuylash.

Musiqaga muvofiq raqs harakatlarini topish («Ufori», «Asl bo’laman»). Chapak jo’rligida (1-guruh) raqs tushish (1-guruh) («Asl bo’laman», «Dahor keldi»). Guruhlarni almashtirib chapak jo’rligida raqs tushish. Sinf konserti.

1.2. Umumta'lim maktablarida umumdidaktik prinsiplarining turlari

Musiqa madaniyati mashg'ulotlari pedagogikaning didaktik nazariyasiva prinsiplari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar musiqa rahbari hamda bola tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari- mashg'ulotlar mazmunining metodlari va mashg'ulotlarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqa mashg'ulotlari (darslari) mazmuni va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Yuqoridagi qayd etilgan umumdidaktik prinsiplari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqa mashg'ulotlarini davlat ta'lim standartiga muvofiq milliy xususiyatlarini asos qilib musiqa faoliyati izchilligini ta'minlaydi.

“Musiqqa madaniyati” darslarining didaktik prinsiplari bir necha turdan iborat:

1. Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi.

Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir mashg'ulotlarda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doyrasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o'z aksini topgan.

Ularni o'zlashtirish – musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir. Mashg'ulotlar (darslar) jarayonida o'quv materiallarini bolalarning bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozing rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asoslarini bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish mashg'ulotlarining ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi. Ilmiylikni, tizimliliksiz amalga oshirish qiyin. Mashg'ulot (dars) larning barcha o'quv faoliyatini hamda keyingi mashg'ulot (dars) larning o'zaro mantiqiy bog'lanishi tizimlilik asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab o'zlashtirib borish prinsiplari muayyan tartibga mos bo'lib, tizimlilik demakdir. Mashg'ulotlarning har bir faoliyati o'z navbatida,

har bir mashg'ulot, darslarning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni tobora amalga oshirishi davomiylik printsipli demakdir.

Musiqqa darslarida musiqiy bilimlarni o'zlashtirish mukammal o'ylangan va asoslangan tizim bo'yicha o'tilishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Beriladigan bilimlar soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lmog'i darkor. Ushbu printsiplarning buzilishi bolalarning o'quv materialini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning musiqqa madaniyati mashg'ulot (dars)lariga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Musiqiy bilimlarni tushuntirishda musiqqa rahbari (o'qituvchisi), avvalo, o'tilgan mavzularga tayanmog'i lozim.

Musiqqa savodi, jumladan, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solingan bo'lmog'i kerak. Yangi tushuncha va bilimlar avval o'zlashtirilgan bilimlarga asoslangan bo'lishi, asta-sekin kengaytirilib va chuqurlashtirib borilishi lozim.

« ... oddiydan murakkabga va chuqurroqqa qarab borgan holda o'z didimizni mumtoz musiqaning eng yaxshi namunalari, zamonaviy kompozitorlarning eng yaxshi asarlari asosida tarbiyalashimiz kerak» (D. Shostakovich).

“Musiqqa madaniyati” darslarini tizimlilikka asoslangan holda tashkil etish, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikma-malakalarni shakllantirish jarayonida bolalarda o'zlariga ishonch paydo qiladi, ruhlarini ko'taradi va musiqqa mashg'ulotlarlariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Tizimlilik buzilsa, bolalar tez charchaydilar, mashg'ulotlarga nisbatan diqqat va qiziqishlari bo'shashib boradi, mashg'ulotlar materialini o'zlashtirish pasayib ketadi.

Ta'limda izchillikka rioya qilish lozim, toki bugun olingan bilimlar kechagisini mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganiga zamin yaratsin. Shu ma'noda barcha sinflarda musiqiy bilimlarni berish tizimi (mazmuni)ning tahlil qilish hamda uni tartibga solish katta ahamiyatga ega.

2. Mashg'ulot (dars)larda bolalarni onglilik va faolligi printsipli

Mazkur printsipl didaktikaning etakchi printsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish bolaning aqliy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir.

Musiqqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqealarni badiiy his etib, bilish, fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

Mazkur malaka va ko'nikmaning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun, bolaning o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirish bilim jarayonlarini faolligini vujudga keltirishi lozim. Ma'lum musiqqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy-estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va faollikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish va o'z navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi.

Musiqqa mashg'ulotlarida onglilik va faollik ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqqa tinglash, musiqqa savodi, faoliyatlarida ham onglilik va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

3. Musiqqa mashg'ulot (dars)larida ko'rgazmalilik printsipt.

Musiqqa ta'limida ko'rgazmali idrok etish katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki uning nutq va amaliy faoliyat bilan biriktirilishi muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf bolalari shaxsini shakllantirishda qo'llaniladigan musiqiy bilimlar ko'lami, mazmunini tanlashda mazkur printsiptga mosligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ko'pincha ko'rgazmalilik printsiptini o'quv-bilish faoliyatidagi jonli mushohada va mavhum tafakkurning uzviy bog'liqligini ta'kidlab, aniq va mavhumning birligi sifatida, ya'ni xususiydan-umumiyga, aniqdan mavhumba o'tish; boshqa hollarda esa mavhumdan muayyan tushuncha va faktlarga o'tish tarzida talqin qilinadi.

K.D.Ushinskiy ko'rgazmalilik printsiptining pedagogik samarasi haqida shunday degan: «...bu shunday ta'limki, u mavhum tasavvur va so'zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qiladigan ma'lum obrazlarga asoslanadi...».

Mazkur printsipt ko'rgazmali metodni tanlashda uning ilmiy-didaktik vazifalarini nazarda tutib, e'tiborni maqsadga muvofiqligiga qaratadi.

Musiqqa tarbiyasida musiqaning o'zi ko'rgazmali vositadir. Chunki, u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. Musiqqa rahbarining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, turli tajriba-sinov materiallarini: metodik tavsiyalar, mashg'ulotlar ishlanmalari, sxema, jadvallar, boshqotirmalar, texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari, nazorat va boshqa didaktik materiallar va qo'llanmalarni tayyorlashda ham ushbu printsipga suyaniladi.

4.O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsipt.

Mazkur printsipt, dasturdan tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida mashg'ulotlar mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir guruhning umumiy bilim va malaka darajasi hisobiga olinishi shart. Dastur asosida har bir guruhning bilim va malakalari hisobiga olingan holda, musiqqa mashg'ulotlarining yillik kalendar-mavzuli rejasini tuziladi. Kalendar-mavzuli ish rejasini tuzganda, uning mazmunida bolalarning yosh xususiyati, musiqiy o'quvi, yangi qo'shiqlar, musiqqa tinglash uchun asarlar, musiqqa savodidagi o'quv materiallari, mashg'ulotlar faoliyatlarini hisobga olinadi.

5.Musiqqa mashg'ulot (dars)larida bilim va malakalarining mustahkamligi printsipt.

Mazkur printsiptni amalga oshirishning eng asosiy sharti, yuqorida bayon etilgan to'rtta printsiptga jiddiy amal qilishdan iboratdir.

Birinchidan bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va hayotiyligini ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asarni va uning ijro uslubini, madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qilinishi lozim.

Ikkinchidan asarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

- a) asarning bolalarni badiiy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi.
- b) musiqqa ta'limining xususiyati.

s) guruhdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqтира olish va to'la o'zlashtirishga erishish.

Uchinchidan mashg'ulotlarda olinadigan bilimlar doyrasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustahkamlash. Masalan:

Qo'shiqlarni jummalarga bo'lib o'rgatish va keyingi mashg'ulotlarda mustahkamlab takrorlash.

To'rtinchidan musiqa mashg'ulot (dars)larida har bir yangi bilim elementi mashg'ulotlar faoliyatida to'liq o'zlashtiriladi va keyingi mashg'ulot(dars)larda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.

6. Ta'lim va tarbiyaning birligi printsipi.

Maktab bolalariga ta'lim berish bilan birga tarbiyalash, ya'ni ularning aqliy va axloqiy shakllanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Musiqa mashg'ulotlari bolalarga musiqiy bilimlarni berish bilan birga ularning axloqiy sifatlarini ham shakllantirib boradi. Qanday faoliyat turi bo'lmasin, xoh musiqa tinglash, xoh qo'shiq kuylash, xoh musiqa savodi, xoh musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish va musiqiy asboblarda jo'r bo'lish– bularning barchasi bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqiy did, musiqiy qobiliyat, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash va musiqa madaniyatini shakllantiradi.

H.N.Nurmatov bolalarni musiqiy-estetik tarbiyalashning qulay shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni tavsiya etadi:

- darslarning maqsadga yo'naltirilganligi (estetik tarbiya borasida);
- musiqa darslarining aniq tuzilishi va o'tilayotgan materialga muvofiqligi;
- o'rgatiladigan materialni to'g'ri tanlash (katta bo'lmagan, lekin yorqin asarlar) va ta'limga mos usul va uslublarni tanlash;
- musiqa o'qituvchisining har bir sinf (guruh) va har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;
- musiqa o'qituvchisining maxsus yo'naltirilgan ishi bolalarning musiqiy-estetik tarbiyasining asosi sifatida bo'lishi;

- musiqa o'qituvchisining bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berishida uzviylik va tizimlilikka erishish;
- butun dars (mashg'ulot)lar davomida musiqa o'qituvchisi tomonidan ma'lum bir psixologik muhitning yaratilishi;
- estetik xarakterdagi kechinmalarni hosil qilishi;
- musiqa o'qituvchisining estetik, metodik, psixologik va pedagogik jihatdan tayyor bo'lishi;
- ota-onalarning bolalari estetik didi, qiziqishi va hissiyotlariga e'tibor berishi.

7. Musiqa ta'limiga tabaqalashtirilgan tarzda yondashish printsipti.

Bolalarning qobiliyati, imkoniyatlariga muvofiq ravishda musiqaga qiziqishlarini oshirish va musiqa bilan shug'ullanishning o'ziga xos yo'llarini tanlash, ularning musiqiy didi, musiqiy idroki, musiqiy dunyoqarashi va musiqiy madaniyatlari shakllanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bolalarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga yo'naltirilgan didaktik choralardan yana biri musiqa ta'limi mazmunini tabaqalashtirishdir. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida bolalar musiqiy bilimlarning uzviyligini ta'minlash uchun bosqichlar aro bog'lanishga oid amaliy topshiriqlarni bajarishda turli tayyorgarlikka ega bo'lgan bolalarning har birida mavjud bo'lgan o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'z bilimlarini qo'llashlari va individual yutuqlarga erishishlarini ta'minlash ko'zda tutilishi lozim.

Bu sohada musiqiy bilimlarni o'zlashtirishda guruhdan tashqari olib boriladigan ko'rinishlari ham o'qishni tabaqalashtirish uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi. Q.M.Mamirov musiqa ta'limini tabaqalashtirish uchun bolalarning bilim darajalarini tekshirib chiqib, ularni uch guruhga ajratadi:

1-guruhga –musiqani sevadigan, musiqashunos bo'lish istagidagi, mashg'ulotlarlarda o'ta faolligi bilan ajralib turuvchi bolalar.

2-guruhga –musiqiy rahbarning barcha talablarini o'z vaqtida bajaruvchi, lekin musiqiy to'garaklarga qatnashmaydigan, o'zlari mustaqil vazifa bajarmaydigan, biroq mashg'ulotlar vazifalarini o'z vaqtida bajaradigan bolalar.

3-guruhga – uyida musiqaga kam e'tibor beriladigan, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarmaydigan, past o'zlashtiruvchi bolalar.

Q.M.Mamirov bolalarni yana ovoz diapazoniga qarab ham tabaqalashtirish mumkinligini ko'rsatib bergan. U ovozga qarab tabaqalashtirishda faqat ovozni hisobga olmasdan, bolalar musiqiy bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini ham hisobga olishni ta'kidlab o'tgan. Musiqiy bilimlarni o'zlashtirishni ham bolalarning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Musiqiy bilimlar majmuasi(mazmuni) va metodikasini belgilashda shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish ham muhim ta'limiy-tarbiyaviy shart hisoblanadi.

8.Ta'lim jarayonida bolalarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish printsipti.

Ushbu printsipt o'quv materialining mazmuni, uning hajmi, xarakteri u yoki bu guruh bolalarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarlik saviyasi va imkoniyatlariga mos bo'lishini taqozo etadi.

Ushbu printsipt musiqiy ta'limning ikki tomonini nazarda tutadi:

1) Musiqa ta'limida ma'lum guruh uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu guruh bolalarining yosh xususiyatlariga mos bo'lmog'i lozim;

2) Har bir guruh uchun belgilangan musiqiy bilim hajmi shu guruh bolalarining saviyasiga mos bo'lishi kerak.

Bu printsipt musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqiy bilimlarni bolalarga sodda, lo'nda qilib tushuntirilmasa, ularni o'zlashtirish yaxshi natija bermaydi. Ko'pincha o'zlashtirilgan bilimlar sodda, o'zlashtirilmagan mavzular murakkabdek ko'rinadi. Ta'limning sodda bo'lishi u yoki bu o'quv materialini ortiqcha urinmay tushunib olinishidir. Bolalar yaxshi tushungan, o'zlashtirgan bilimlarini yangi (murakkab) tushunchalar bilan aniq va ravshan bog'lash natijasida sodda vazifalarni bajarib, murakkab vazifalarni o'zlashtirishga hozirlanib boradilar. Musiqiy bilimlar tizimini shakllantirishda aynan shu printsiptga amal qilinadi.

9. Bilim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi ta'lim printsipti.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirishda bu printsiptan maqsadga muvofiq, muntazam foydalanish lozim. U o'qitishning bilim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini chambarchas bog'liq holda olib borishga xizmat qiladi. O'qitishning bilim beruvchi vazifalari bolalarning fakt, hodisa, tushuncha va xulosalarni o'zlashtirishlari zarurligini belgilasa, tarbiyalovchi vazifalari bola shaxsining ma'lum e'tiqod hamda axloqiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. Rivojlantiruvchi ta'lim esa musiqiy materialni o'rganish bolalarda qanday ko'nikma va malakalarni shakllantirishga umumiy va musiqiy tafakkurning qaysi jihatlarini rivojlantirish lozimligiga e'tibor beradi. Shuningdek, bilim berish va bolalarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o'rnatilishini talab qiladi.

O'zlashtiriladigan bilimlar hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida qayd qilingan mashg'ulot(dars)lar bolalarda mustaqil fikr yuritish, musiqiy materialni zamon va makonda tahlil qilish, musiqa asarlarini o'xshashlik va farq qiluvchi xususiyatlariga qarab taqqoslash, musiqiy faktlar o'rtasida mavjud bo'lgan sabab – oqibatli aloqani aniqlash kabi ko'nikma va malakalarni hosil qilishga ko'maklashadi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirishning mazmuni va metodikasi, shakl va usullari, bir so'z bilan aytganda uning pedagogik tizimini yaratish – musiqiy pedagogikaning hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolaridan biri. Bu tizim musiqa san'atining vositalari orqali shaxsni shakllantirishning umumiy pedagogik printsiplaridan iborat bo'lmog'i lozim. Shuningdek, u ma'lum usullar va shakllarni hamda ilmiy-metodik tavsiyalarni o'zida mujassam etishi kerak.

E.B.Abdullin: – «...musiqiy ta'limning mohiyati, maqsad va vazifalari, yo'nalishi, mazmun va jarayonining xarakterini ochib berishda printsiplar asosiy o'rin egallaydi», deydi. U musiqiy ta'limdagi bir nechta printsiplarni yo'nalishlarga ajratadi:

1. Falsafiy-estetik yo'nalish (... musiqiy ta'limda insonparvarlik qarashi; bola shaxsini san'at bilan muloqotda o'z-o'zini baholashi...).

2. Musiqashunoslik yo'nalishi (... xalq, milliy va zamonaviy musiqa birligiga tayanish; musiqa janrlari va ularning hayot bilan bog'liqligiga tayanish; tinglash, ijro etish, ijod etish faoliyat asosi sifatida...).

3. Badiiy-psixologik yo'nalish (... musiqiy ta'limda ong va tafakkur birligiga tayanish...).

4. Badiiy-didaktik yo'nalish (... musiqiy ta'lim-tarbiya birligi, izchillik va tizimlilik, ilmiylik, musiqiy ta'lim natijalari mustahkamligi...).

5. Musiqiy pedagogik yo'nalish (... obrazlilik va butunlik, musiqiy-pedagogik maqsad va vositalar aloqadorligi, badiiylik va texnologiya birligi...).

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash joizki, bola shaxsini shakllantirishda amal qiladigan ilmiy asoslangan mazmun va metodika, shakl va usullar muayyan pedagogik printsiplarga amal qilishi lozim. Bu printsiplar ta'lim-tarbiyaning davr talabiga, ya'ni zamonaviy ijtimoiy buyurtmaga mosligi, pedagogik jarayonda ob'ektiv-sub'ektiv jarayonlarning uyg'unligi, ta'lim-tarbiyada maqsad, mazmun, metod va vositalarning bir-biri bilan bog'liqligi kabi pedagogikaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Natijada, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirish uchun quyidagi printsiplar muhim va ular nafaqat musiqiy ta'lim strategiyasini, balki ta'lim va tarbiyaning boshqa masalalarini ham muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Musiqiy bilimlarga oid mazmuni belgilash, unga monand metodika, ta'lim shakli va usullarini tanlashda, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishda bu printsiplarga amal qilish pirovard pedagogik ijobiy natijaning samarasidir.

10. Nazariyaning amaliyot bilan uzviyligini ta'minlash printsipti.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lagan holda mashg'ulotlar o'tish o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Umumiy musiqa ta'limi tuzilishi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy jarayonlar o'rganilishi kerak bo'lgan quyidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi:

Qo'shiq kuylash - musiqa tinglash, ritmik harakatlar bajarish jarayonida musiqa ijodkorlari, musiqaning ifodaviylik vositalari, musiqa tarixi, musiqiy janrlar haqida (sodda qilib) ma'lumotlarni beradi.

Musiqa tinglash - kuylanadigan yoki tinglanadigan kuyning nota xususiyatlarini, dinamik belgilari, sur'ati, kuy yo'nalinishini ongli kuzatish va ijro etish imkonini beradi.

Qo'shiq kuylash

Musiqa tinglash

Musiqa savodi

Musiqiy-ritmik harakatlar bajarish

Bolalar musiqa cholg'u asboblarida ijro etish

Musiqiy-ritmik harakatlar bajarish - kuylanadigan yoki tinglanadigan kuyning sur'ati, usulini o'rgatadi. Ritmsiz kuy bo'lmaydi.

Shuning uchun biror kuy noto'g'ri ritmda ijro etilsa, musiqiy asar o'z shaklini yo'qotadi. Mashg'ulotlarlarda amaliy mashqlar jarayonida musiqiy asarga xos ritmik harakatlar bajariladi (raqs elementlari).

Bolalar musiqa cholg'u asboblarida musiqaga jo'r bo'lish - kuylanadigan yoki tinglanadigan asarning yaratilish tarixi, o'sha davrning xususiyatlari, yaratuvchilari haqida ma'lumot beradi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, o'zlashtirilgan bilimlarning boshqa faoliyatlar bilan uzviylikini ta'minlash ham zarur.

Umuman, yuqorida qayd etilgan printsiplar musiqiy bilimlarni o'zlashtirishda, bolalarning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish va uni amaliyotga joriy qilish uchun metodik sharoitlarni ishlab chiqishda asos bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik printsiplari, musiqa madaniyati mashg'ulotlarlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa o'qitish metodlari.

Ta'lim metodi bu o'qituvchi va o'quvchining tartibga solingan o'zaro aloqadagi usuli, o'qitish jarayonida ta'lim va rivojlanish masalalarini xal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Metod (yunoncha atama-aynan nimagadir yo'l) maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solingan faoliyat. O'qitish metodlari o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Faoliyatning tegishli metodlarisiz ta'limning maqsad va vazifalarini o'quv materialining muayyan mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishga erishib bo'lmaydi. Usullar axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyga bo'linadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim faoliyatini xarakteriga munosib ravishda quyidagi usullar: tushuntirish - ilyustrativ (informatsion retseptiv) reproduktiv, muammoli bayon, xususiy kidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot va tadqiqot usullari qo'llanishi mumkin.

Metodlar asosiy guruhlarining har biri o'z navbatida guruhchalar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi o'zlashtirish, qabul qilish, anglash, o'quv informatsiyalarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va b.), o'quv informatsiyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va b.) o'quv informatsiyasini berish va uni taxlil, kinestezik qabul qilish (amaliy metodlari: mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va b.) kiradi. Ta'limning og'zaki metodlariga hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu metodlarning qo'llanishida o'qituvchi so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchilar esa tinglash, eslab qolish va anglash orqali uni faol qabul qiladilar va o'zlashtiradilar.

Hikoya. Ushbu metodda, o'quvchilarga savol bilan bo'linmasdan, o'quv materialini mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Hikoyaning bir necha turi bo'lishi mumkin - hikoya - muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosa.

Birinchisining maqsadi – o'quvchilarni boshqa metodlar bilan, masalan, suhbat orqali yangi o'quv materialini qabul qilishga tayyorlashdir. Hikoyaning bu turi nisbatan bayonning qisqaligi, yorqinligi, qiziqarliligi va emotsionalligi bilan xarakterlanib yangi mavzuga qiziqish, uni faol o'zlashtirishga extiyoj uyg'otadi. Mana shunday hikoya vaqtida darsda o'quvchi faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda xabar beriladi.

Hikoya - bayon davrida o'qituvchi yangi mavzuning mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja, asosiy, muhimlarini ajratib, ilyustratsiya va ishonitirarli misollarni izchil bayon qilishni amalga oshiradi.

Hikoya - xulosa odatda mashg'ulotning oxirida keltiriladi. O'qituvchi unda asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi.

O'quv leksiyasi (ma'ruza) ta'limning so'z bilan ifodalash metodlaridan biri sifatida o'quv ma'ruzasi o'quv materialini og'zaki bayon qilishini ko'zda tutib, hikoyadan o'zining xajmining kattaligi, mantiqiy ko'rilish, obraz isbotlash va umumlashtirishining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi, hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi.

Ma'ruza davomida informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarning fikrlashini faollashtirish usullari, argumentlashtirish, isbotlash-tisniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va x.k. usullardan foydalaniladi.

Ma'ruzalar asosan o'rta maktablarning yuqori sinflarida, shuningdek, kollej va oliy o'quv yurtlarida o'qiladi. Ma'ruza rejasini aniq o'ylash va ma'lum qilish zarur. Reja bandlarining barchasida, ularning har birining yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak.

Suxbat. Suxbat metodi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi. Suxbat metodining qo'llanishida savollarning ko'ya olish usullari (asosiy, qo'shimcha, yo'llovchi va x.k.) o'quvchining javob va muloxazalarini muxokama, qilish usullari, suhbatdan xulosalarni shakllantirish usullari, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlarini shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin: ilyustratsiya va namoyish qilish metodlari. Ilyustratsiya metodi, o'quvchilarga ilyustratsiya qo'llanmalar - plakat, harita, doskadagi rasm, kartina, olimlarning portretlari va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi. Namoyish qilish metodi odatda asboblar, tajribalar, texnik kurilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish metodiga shuningdek, kinofilm va diafilmlar ko'rsatishni ham kiritishadi. Ko'rgazmali vositalarning illyustrativ va namoyish qilish bo'linmalari o'qitish amaliyotida tarixiy shakllangan.

Ta'limning amaliy metodlari o'quv faoliyatining xilma-xil turlarining keng doirasini kamrab oladi: amaliy metodlaridan foydalanishda quyidagi usullar qo'llaniladi: vazifani qo'yish, uni bajarilishni rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, jadal ragbatlantirish, tartibga solish va nazorat, amaliy ish natijasini tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun ta'limga tuzatish kiritib borish.

Ta'limning muammoli - qidiruv metodlari amalda ta'limning so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot metodlari yordamida qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda o'quv materialini mukammal bayon qilish metodlari, muammoli va evrestik suhbatlar, muammoli kidirish tipidagi ko'rgazmali metodlarni qo'llash, muammoli qidiruv amaliy ishlarni o'tkazish yoki xatto tadqiqot tipidagi ishlar to'g'risida gapirish mumkin. O'quv materialini muammoli va muammoli tuzilgan ma'ruza metodlari orqali bayon qilish o'qituvchining bayon davomida muloxaza

yuritish, isbotlashi, umumlashtirishini, faktlarni tahlil qilish va tinglovchi fikrini o'z ortidan ergashtirishi, uni faolrok va ijodiyrok qilishni ko'zda tutadi.

Muammoli ta'lim metodlaridan biri evristik va muammoli qidiruv suhbat hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga qator izchil va o'zaro bog'langan savollarni qo'yadi. O'quvchilar ularga javob berganda qandaydir shakllarini aytadilar. Aytganlarining to'g'ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. Bu bilan birga yangi bilimni o'zlashtirishda mustaqil ravishda o'zlarining oldinga siljishini amalga oshiradilar.

Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yigindisidan iborat. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, doimo dinamik tarzda o'zgarib boradi. Ta'lim davomida ta'lim olayotganlarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Musiqqa darsida o'qituvchi o'quvchilarni musiqani idrok etish jarayonida, bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi uslublarni qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida vositachi hamdir. Chunki, aynan bir metod bilan o'qituvchi o'rgatadi, o'quvchilar o'rganadi.

Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarining bilim, mahorat va malakalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuntiriladi. Bu metodlar, bir necha turga bo'linadi:

1. Musiqqa o'qitish og'zaki metodlari: a) hikoya, b) suhbat, v) tushuntirish
2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari. Bunda nota yozuvlari, plakatlar, dirijyorlik harakatlari, raqs, musiqani jonli va aniq ijro etilishi, ritmik sur'ati ko'rsatiladi.
3. Amaliy metodlar: Amaliy metodlar vositasida vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlili, musiqaga mos qadam tashlash, chapak chalish harakatlarini bajarishlar, qo'shiq kuylash jarayonida ifoda etiladi.

4.O'yin metodi: o'yin metodi asosan boshlang'ich sinflarda qo'llaniladi. O'yin metodi o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini, nutqini, xotirasini, qiziqishini psixologik-fiziologik xususiyatlarini rivojlantiradi.

5.Taqqoslash metodi: Bu metod vokal-xor ishlarida, musiqa asarlarining tahlil va janrlarni belgilash (qo'shiq, raqs, marsh) musiqa tinglash jarayonida qo'llaniladi.

6.Musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodi: Musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differentsional guruhlarga bo'lib va darsdan tashqari vaqt ajratib, yakka tarzda ish olib boriladi. Darsdan tashqari jarayonida alohida qo'shiqlarni o'rganib, topshiriqlar beriladi.

II – bob. IKKI OVOZLI QO'SHIQLAR KUYLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

2.1. Ikki ovozli kuylash malakalarini hosil qilish mashqlari.

Bu mashqlardan ko'zlanadigan asosiy – ikki ovozli tovuz yangrashining yaxshi soz bilan, baravar, uyg'un va ravon bo'lishiga erishishdir. Bunda o'qituvchi to'g'ri nafas olish, yaxshi tovush hosil qilish va yaxshi artikulyasiya bo'lishini kuzatib boradi.

Oldin mashqni har bir ovoz bilan alohida – alohida o'rganib chiqish zarur. Ayrim ovozlar mukammal o'rganilgandan keyn ularni bir – biriga qo'shish mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchi o'zi chalib yoki kuylab berib, int onasiyada bo'shashgan ovozlar to'dasiga yordamlashadi. Dastavval ikkinchi ovozni eslab qolish qiyin bo'lganligi sababli, o'qituvchi birinchi ovozga og'izni yumib ikkinchi ovozga esa nota nomlarini aytib kuylashni taklif etishi mumkin. O'quvchilar o'z partiyalarining ovoz yo'nalishini yaqqol tasavvur etishlari uchun ikki ovozli mashqlarni nota bilan kuylash tavsiya qilinadi.

Mashqlarni o'rtacha tempdagi jo'rnavozlik bilan va jo'rsiz kuylash kerak:

Bu mashq ayni vaqtda nafas olish malakalari hosil qilish uchun ham yordam beradi. Uni bir nafas bilan ijro etish kerakki, o'sha olingan nafas mashqning oxirigacha yetsin.

Svetofof.

Odil mashqni o'rtacha tempda, keyin sekin tempda kuylab (3-4 mashg'ulotdan so'ng), ustalik bilan nafasni tejab sarflash kerak. Bu mashqni kuylaganda o'quvchilar uning ritmik asosiga qat'iy rioya qilib, qo'l harakati bilan taktni hisoblashsa yaxshi bo'ladi.

«Svetofor» qo'shig'idan mashq tariqasida foydalanish mumkin.

Tersiya bilan kuylash malakalarini oshirish uchun gammaga yoki uning bo'laklariga asoslangan mashqlarni o'rganish foydalidir:

Mustaqil ovoz yo'nalishi va polifoniya malakalarini oshirish uchun kononlar bilan mashq qilish foydali bo'ladi. Bunga «Qarg'a» misol bo'la oladi.

Kononlar notaga qarab kuylanadi. Avval o'quvchilar kononni butun sinf bilan birgalashib o'rganishadi, keyin o'qituvchi ikkinchi ovozlarning kechroq qo'shilishlarini tushuntiradi va notalardagi belgiga qarab, qayerda qo'shilishi kerakligini ko'rsatadi. O'quvchi bu mashqqa o'yin elementini kiritib, ikkinchi

ovoz guyo birinchi ovozga yetib olmoqchi – yu, lekin sira yetolmayapti, deb tutintiradi. Kanonni ijro etganda bolalar bir-birlarini ovozlaridan o'zib ketmasdan, boshqa ovozni eshitib, sekin, osoyishta, ravon kuylab borishlarini kuzatib turish kerak. Keyin ovozni o'zgartirib, kanonni kechroq qo'shilgan ovozlarga topshirish mumkin. Dastlabki vaqtda o'qituvchi kanonni cholg'u asbobida chalib yordamlashadi, keyinroq uni jo'rsiz kuylash ma'qul.

Uch ovozli mashqlar ustida ishlash metodlari huddi ikki ovozli mashqlar ustida ishlash metodlari singaridir. Bundan ko'zlanaligan asosiy maqsad – ancha murakkab uch ovozli hamohangliklarda, shu bilan birga, boshqa vokal – xor malakalariga ham e'tibor bergan holda, sof ohangdoshlikni hosil qilishga erishishdir:

Birgalikda qo'shiq aytish uchun tubandagi kompleks mashqlarni tavsiya etish mumkin.

Quyi sinflar uchun:

2.2. Ikki ovozli qo'shiq malakalarini o'stirish asoslari.

Ko'p ovozli musiqa asarlarini qo'llamay turib o'quvchilarga musiqa tarbiyasi berish qiyin bo'ladi. Bolalarning musiqa o'quvi ularning ilk yoshlik davridan tarbiyalab boriladi. Radio, kino, televideniya orqali olinadigan ko'pdan – ko'p musiqa axboroti bolalar o'quvini jonajon xalq musiqasi va turli – tuman shaklda nomoyon bo'ladigan ko'p ovozli musiqa sadolari bilan boyitib boradi. Ammo bularning hammasi sust – passiv tarbiya hisoblanadi. Musiqaviy taassurotlarning bunday turlari bolalarda ko'p ovozli musiqaning go'zalligini chinakam his etish va idrok qilish ko'nikmasini tobora o'stirishga qodir emas. Ko'p ovozli asarlarni ijro etishda bolalarning o'zlarini bevosita qatnishtirish yo'li bilangina aktiv ko'nikma hosil qilinadi.

Umumiy ta'lim maktabida bolalar, asosan, musiqa tarbiyasi darslari va xor to'garaklarida qo'shiq aytishida ishtirok qilib, musiqa ijro etishni va qo'shiq aytishini o'rganadilar.

Ikki ovozli qo'shiqlarni o'rganishga kirishidan oldin tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Bu davrda ikki ovozli qo'shiq aytishga zamin hozirlanadi. Bir ovoz unisonda qo'shiq aytish va bu ish jarayonida hosil qilinadigan malakalar xudi shu zaminning o'zidir.

Unisonda qo'shiq aytishga xos o'zaro bog'liq malakalar quyidagilardan: musiqani zehn qo'yib tinglay bilish, uni his etish, tavush baland pastligini tahlil qila bilish, eshitib nazorat qilish, musiqa xotirasi va uning turlaridan biri – tovush baland – pastligini bilib eslab qolishdan iborat. Ikkinchi sinfda esa bu tasvirlar o'rnini nota yozuvlari egalay boshlaydi. Uchinchi sinf o'quvchilari esa asarni oldin solfedjio qilib qo'yilaydilar, so'ngra qo'shiq so'zlari bilan ijro etadilar. Turli tasverlar va nota yozuvlariga qarob kuylash birinchi sinfdan boshlab sistemali ravishda olib borilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarning ovoz diapazonini aniqlash va uni kengaytirib borishga alohida e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinflarda ko'pchilik o'quvchilarning ovoz diapazoni I aktava «lya»dan yuqoriga o'tmaydi. Zero dasturdagi qo'shiqlarning diapazoni I aktava «do»dan II aktava «do»gacha ko'tariladi. Natijada, o'quvchilar

qo'shiqning bu pardalarida mutloqo noto'g'ri ijro etadilar, yoki umuman ayta ayta olmaydilar. Shu tufayli o'quvchilarni ikki ovozga ajratish, ya'ni ovoz yuqori pardalarga ko'tarilmaydigan o'quvchilar jim eshitishlari, qolganlar kuylashi talab qilinadi. Shuningdek, ovozga ajratish o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda, ularni guruhlarga bo'lishda ham qo'l keladi. Har bir ovoz guruhining alohida kuylanishi o'quvchilarni ko'p ovozlikka tayyorlab boradi va ularda mustakillik hisini tarbiyalaydi.

O'quvchilarni xor ijrochiligiga o'rgatishda «a'kapella» (jo'rsiz) asarlarini musiqa asboblari jo'rligisiz ijro etish muhim ahamiyatga ega. Jo'rsiz kuylash musiqa tinglash qobilyatining to'g'ri shakillantirishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ritm va ovoz tembirining ijobiy rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilarning qo'shiqlarini «a'kopella» usulida kuylashi bir – birlarini yaxshi eshitishini, tovushlar intonasiyasidagi taniqlikni ta'minlaydi, ularning mustaqil kuylash malakalari takomillasha boradi. Shu tufayli musiqa asbobi jo'rligida ijro etiladigan asarlarni ham ayrim hollarda «a'kapella» tarzida o'rganish va ijro etish foydalidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z diqqat – e'tiborini uzoq vaqt bir narsaga qaratib tura olmaydilar, tezda charchab qoladilar. Shuning uchun bu sinflarda fizkult pauza daqiqalaridan foydalaniladi. Musiqa darslarida fizkul pauza daqiqalari o'rnida ijroga ritm berib borish, chapak chalish, bir joyda turgan holda qadam tashlash takt xissalarini sanash, dirijyorlik elementlarini qo'llash kabi xilma – xil xaroakatlardan foydalanish zarur. Ayniqsa bolalar musiqa asboblarida chalish va raqs xarakatlarini bajarish ularni darsga faol jalb qilishga qo'l keladi. Bu xarakatlar o'quvchilarning fikrlarini faollashtiradi, dars qiziqarli o'tadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir sinfda, har bir o'quv yilida 12-14 ta qo'shiq o'rganadilar. Shu davrda ular asosan bir ovozli qo'shiqlarni (unisonda) kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradilar va ayni paytda ko'p ovozlikka o'tishga tayyorgarlik ko'radilar. III sinfning III choragidan boshlab dasturga ikki ovozli elementlari bor qo'shiqlari ham kiritiladi. Shuningdek, o'quvchilarni ko'p ovozlikka o'rgatish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar bu ishni birinchi

sinfdan boshlab mumkinligini ko'rsatdi. Buni amalga oshirish uchun dasturdagi qo'shiqlardan o'qituvchining o'zi o'quvchilarning qobiliyatini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlab oladi. O'quv yili davomid yangi qo'shiqlar to'plamlaridan, turli jurnallarda berilgan qo'shiqlardan, radio va televidiniya eshittirishlarida ijro etilayotgan yoki mualliflarning o'zlaridan olingan qo'shiqlardan o'qituvchilarning yoshi va saviyasiga mos keladigan eng yaxshi bolalar qo'shiqlarini tanlab o'rganish mumkin. O'qituvchga qo'shimcha manbaalardan foydalanish imkoniyati berilgan. Dasturda o'qituvchilarga sistemali ravishda vokal va xor malakalarini singdirib borish masalasi ham qo'yilgan. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ovoz apparatlari juda nozik, ovoz diapazonlari cheklangan bo'ladi. Uzoq vaqt surunkasiga qo'shiq kuylash bolalar ovoz apparatlarining shikaslanishiga olib kilishi mumkin. Shuning uchun dars strukturasi buzib, musiqa savodi va musiqa tinglash faoliyatlari o'rnida ham qo'shiq kuylatish xollariga yo'l qo'yish tavsiya etilmaydi. O'quvchilarning ovoz apparatlariga putur yetkazmaslik, ovozni saqlashning muhim sharti o'qituvchilarning ovoz diapazonlarini yaxshi aniqlash va ishchi diapazonlaridagi notalardan tashqari chiqmaslikdir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlariga xos juda mayin va yoqimli tembirga ega bo'ladilar. Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarning vokal va xor malakalaritakomillashtirib boriladi. O'tirib va turib kuylaganda gavdani to'g'ri tutish, nafasni rejaga sola bilish, kuylaganda unli va undoshlarni, melodik, garmonik intervallarni to'g'ri talaffuz qilish, dinamik tushlarga rioya qilgan holda (mayin ovozda uyg'un, yoqimli) kuylash ustida muntazam ravishda ish olib borilgan.

Dasturda vokal xor malakalari (gavdani to'g'ri tutish), nafasni rejaga solish, tovush xosil qilish, diksiya, soz, ansambl va dinamika ustida ishlash har bir sinf uchun alohida belgilangan. Bolalar ovozini parvarish qilish, vokal va xor malakalarini oshirishda ashula o'rganishda oldin maxsus vokal mashiqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avval o'quvchilarni ishchi diapazonining prima (o'rta) tovushlaridan boshlab pastga tomon yo'naluvchi tetraoxodlardan

foydalaniladi. Nafas esa me'yorida, shovqinsiz, bir maromda boshni ko'tarmay, o'z vaqtida olish va mayin atakada kuylashga alohida e'tibor beriladi. «Qattiq ataka» boshlang'ich sinflarda juda kam ishlatiladi. Chunki qattiq atakada kuylash xalq juda ham nafis bo'lgan ovoz apparatlarining zo'riqishiga olib keladi. Shuningdek ularni ovoz diapazonining haddon tashqari past yoki yuqori pardalarida kuylatish yaramaydi. Qattiq gapirish, baqirish va ichimliklarni juda issiq yoki sovuq holda istemol qilish ovoz pardalarini xastalantirishi haqida o'quvchilarni har doim ogohlantirib borish lozim. Ovozida hastalik alomati borligi aniqlangan o'quvchilar muolaja davrida kuylashdan ozod qilinadi. Bular o'z vaqtida muolaja uchun lor yoki tomoq og'riqni davolaydigan shifokorlarga yuborilishi lozim. O'quvchilar ovozini asrash ustida muntazam ish olib borish ovoz apparatlarining sog'lom rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Dasturda o'quvchilarga musiqa savodi bo'yicha ma'lum hajmda bilim berish, nota bilan kuylash malakalarini hosil qilishga ham alohida e'tibor berilgan. Darsning bu turida tovush qator bosqichlarining boland – pastligi, nota chiziqclariga joylashuvi, pauzalarning uzun – qisqaliga, o'lchov, major va minor ladlari, dinamik tuslar kabi musiqaning nazariy elementlari bilan tanishadilar. Musiqa savodidan berilayotgan bevosita tovushlarning tabiiy jarangi bilan bog'lab berish muhim ahamiyatga ega. Bosqichlarning aniq balandligi va notalarning cho'zishini his etishda, kuylash malakasini takomillashtirishda nota bilan kuylashga alohida e'tibor beriladi.

Kuy va qo'shiqlarning musiqiy matnni, oddiy taxlil qila bilishga o'r gatishtirish orqali o'quvchilarga musiqaning oddiy tuzilishi haqidagi tushunchalar singdiriladi va ular bora – bora oddiy ohangni nota bilan kuylab bera olish darajasiga erishadilar. Birinchi sinfda ular oddiy, kichik – kichik musiqa jumllarini nota bilan kuylashni o'r ganadilar. Buning uchun kuy va qo'shiqlarning o'quvchilarga oldindan tanish bo'lgan, esda saqlab qolish uchun oson bo'lgan qatorlaridan foydalaniladi. Kiyinchalik notanish kuylardan ham namunalar kiritiladi. Nota bilan kuylashni o'rtacha tezlikda ijro etiladigan chorak yoki sakkiztalik notalardan

tuzilgan frozalardan boshlagan ma'qul. O'quvchilarning qobiliyati va o'zlashtirishiga qarab mashqlar borgan sari murakkablashtirib boriladi.

O'quvchilarning musiqiy taasurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didini tarbiyalashda darsning musiqa tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyati turida o'quvchilar musiqa o'qituvchisi ijrosida, elektrofon, magnitafon yordamida eng nodir musiqa asarlarining namunali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanavozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar, san'atning katta dargohiga ilk bor qadam tashlaydilar. Musiqaning man'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va hayot go'zaligini, voqyelik va xatti – harakatlaridagi qaytarilmas, ko'z ilg'amas qirralarini musiqiy oxangdagi rang – barang bo'yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq his etadilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnashib qolishi uchun bu kuylarning ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa asar musiqa asbobi ijrosida tinglanib, so'ng kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida ikki – uch marta eshittirish, har gol kuyning yangi – yangi dinamik qirralarini o'quvchilarga tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlar – marsh, ko'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo'ladilar.

Darsning har uch asosiy qismi alohida – alohida ajralib qolmasligi, aksincha ular bir – biri bilan uzviy bog'liq holda darsning mazmuni bir butun bulishini ta'minlash lozim.

O'quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o'zaro uyg'un kuylashini mustahkamlashda ba'zan ularni «sinf sahnasi»ga chiqarib kuylatish yaxshi samara beradi. Qo'shiq tugal o'rganib bo'lingach haftada yoki chorak oxirida o'quvchilar «sinf konserti» beriladi. Sahnaga chiqish, sinfdoshlari orasidan o'z o'rnini topib turish, kuylaganda bir – birlarini his qilish va o'z joyiga borib o'tirish kabi sahna madaniyatiga qat'iy amal qila borish o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga va hulqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. «Sahnada» kuylash o'quvchilarning qo'shiqni qay darajada o'rganib olganligini aniqlash asarning

ayrim jumllarini «pishitib» olish va qo'shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkonini beradi. «sinf konserti» o'quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg'ulotga aylanadi. Bu amaliyot o'quvchilarning musiqa darslariga qiziqtirishning muhim usuli xisoblanadi.

Darsni sifatli va samarali olib borish uchun ko'rgazmali qurollardan, turli texnikaviy vositalardan keng foydalanish muqim rol o'ynaydi. Darsdan tashqari tashkil qilinadigan tadbirlarda faol ishtirok etishga o'quvchilarni muntazam ravishda tayyorlab borish lozim. Xor, ansambl, yakkaxonlik tugaraklari o'quvchilarda musiqaga bo'lgan havas va ishtiyoqini oshiribgina qolmay, maktabda tashkil qilinadigan erkaklar, kechalar, tabiat bag'riga saytrlar, ekskursiyalar va boshqa turli bayram, tantana va tadbirlarning qiziqarli o'tishida ham muhim rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar o'quvchilar xotirasida uzoq yillar saqlanib qoladi. O'quvchilarni musiqa vositasida estetik tarbiyalashda maktab bilan oila xamkorligiga alohida e'tibor berish, ota – onalar bilan bemaslahat ish olib borish maqsadga muvofiqlidir. Boshlang'ich sinflarda hosil bo'lgan bilim va malakalarga tayangan holda II – III sinflar musiqa darslari oldiga yangi vazifalar qo'yiladi. Bunda musiqa san'atiga ijtimoiy ong shakli sifatida qaraladi va shu boshdan o'quvchilar shaxsiyatini shakllantirishda u qudratli vosita ekanligi e'tirof etiladi. Zero, musiqa kishilar hayotini, ularning xis – tuyg'ularini va orzu – istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishi hissiyotlariga faol ta'sir etadi. Bir so'z bilan aytganda, musiqa san'ati hayotni o'rganadi, tasvirlaydi va ifodalaydi. Shu boisdan musiqa, o'quvchilarda estetik hissiyotlarni tarbiyalash orqali ularning ma'naviy, g'oyaviy va ahloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda, ularda olijanob fazilatlarini kamol toptirishda ta'sirchan. Musiqaning bu fazilatlaridan har bir sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, hayotiy tajribalari, musiqiy bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda foydalaniladi. Boshlang'ich sinflarda kichik bolalar tafakkuriga xos va ko'proq o'yin bilan bog'liq bo'lgan kichik qo'shiqlar, kuy va pyesalar berilgan. O'rta sinflarda esa o'quvchilar hayotiy tajribalari boytgan, konkret fonlarni o'rganish jarayonida ilmiy – materialistik dunyoqarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq

qiladi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, xajmi va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiylashib boradi. Bunda musiqa ta'limining milliy asosi muhim rol o'ynaydi. Garchi dasturda o'zbek halq musiqasi, og'zaki an'anadagi o'zbek musiqasi ma'lum tartibda berilgan bo'lsa – da shunga qaramay, boy musiqa madaniyatimizning hisobga olgan holda har bir o'qituvchi dars mazmunida milliy musiqa boyligimizdan unumli foydalanib borishi tavsiya etiladi. Bunda ayniqsa vokal – xor mashqlari sifatida xalq kuy va qo'shiqlardan parchalar kuylash va shu vosita bilan milliy musiqa ohanglari hususiyatlarini bolalar xissiyotiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir. Xalq musiqa ohanglari, lad va ritm – usullari hissiyotlari asosida o'zbek kampozitorlari ijodini o'rganish va shu orqali jahon musiqa boyligi namunalari idora etishga o'rgatish tabiiy bir hol deb e'tirof etilish lozim. Bu esa darsdagi barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida uzluksiz amalga oshirib borishi lozim. Musiqa ta'limining milliy asosini tarkib toptirishda fortepiana bilan bigalikda xalq cholg'u asboblariidan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa doira chertib kuylash, ritmik xarakterlar va raqs elementlarini bajarish, musiqiy ijodkorlik bilan shug'ullanish o'quvchilarning musiqiy hamda jismoniy rivojlanishi uchun har jihatdan ijobiy foyda beradi. Shuning uchun o'qituvchi xalq musiqa merosimizni va ayniqsa, zamonaviy xalq musiqa ijodini muntazam o'rganib borishi shart. Ma'lumki, maktabda musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning musiqaviy madaniyatini tarkib toptirishdan iboratdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish tavsiya etiladi:

Musiqaviy qobiliyatlarni tarbiyasi. Bunda o'quvchilarning musiqa o'quvi, ritm tuyg'usi, musiqa xotirasi, melodik va garmonik o'quvi, tembr o'quvi kabi muhim qobiliyatlarini rivojlantirish va shuning vositasida ular da vokal – xor hamda musiqa idroki malakalarini shakllantirish lozim. Bu vazifalarni amalga oshirishda har bir o'quvchini alohida o'rganish, undagi musiqaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va sinfning imkoniyatlarini aniq hisobga olgan holda repertuar tanlash, turli pedagogik usullardan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Badiiy – estetik tarbiya – estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lgan musiqaviy tarbiya badiiy tarbiyaning yorqin namunasidir. Zero, musiqa darslari, asosan, musiqa asarlari vositasida amalga oshadi.

Shunday ekan, o'quvchilarni har bir musiqa asarini diqqat – e'tibor bilan tinglab, ulardagi musiqiy tovushlar vositasida gavdalantirilgan badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etish hamda ularga to'g'ri badiiy baho bera olishga o'rgatib borish zarur. Bunga musiqa san'atining badiiy mohiyatini, uning tur va janrlarini o'quvchilarga to'g'ri tushuntirib berish katta yordam beradi. Xususan, har bir janr o'rganishda san'at ustalari ijrosidagi badiiy yuksak musiqa asarlarini namuna sifatida tinglash o'quvchilar badiiy didining tarkib topishida muhim rol o'ynaydi.

Ahloqiy va aqliy – tafakkur tarbiyasi – milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nosr al – farobiy musiqaning shaxs kamoloti shaklanishiga ijobiy ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan shu ma'noda foydalik, kimning fe'li – atvori muvozanatini yo'qotgan bo'lsa tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'lig'i uchun ham foydalidir».

Atoqli pedagog V.A.Suxamlinskiy ham musiqa san'atiga ulkan tafakkur manbai, usiz bolaning aqliy rivojlanishiga erishib bo'lmasligi e'tirof etgan. Zotan, har bir musiqa asarida ijodkorning ma'lum g'oyasi yoki biror badiiy mazmun bo'ladi. Musiqaning mazmuni o'quvchining g'oyaviy emosional hissiyoti faol kechishi natijasida idrok etiladi. Shuning uchun

to'g'ri tarbiyalangan musiqaviy – badiiy did musiqa asarining g'oyaviy va badiiy mazmunini chuqur anglashda katta rol o'ynaydi. Demak, ahloqiy va aqliy – g'oyaviy tarbiya, badiiy tarbiyaning ichki mazmunidir. Bu vazifani amalga oshirishda xalq musiqasi va kompozitorlar asarlarining mohiyatini, ularning tuzilishi jihatidan farqini, milliy xususiyatlarni hamda janr tuzilishlarini o'rganish zarur. Bunda atoqli san'atkorlar ijodi bilan tanishish, ular yashagan davrni bilish, ular yaratgan asarlarni musiqiy – pedagogik jihatdan tahlil etib o'rganish, mashhur asarlar taqdiri va tarixi bilan tanishish muhim rol o'ynaydi.

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy jihatdan yaxlit taassurot qoldirish uchun ularni ma'lum mavzu asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonunitlari, ijro chilek turlari yoki uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanishi mumkini. Masalan, lad nima? «Xalq musiqa ijodi», «Bastakorlik va kompozitorlik ijodi», «Musiqiy – dostonlari», «Katta ashula janri», «Maqomlar» «O'zbek musiqasidaijrochilik uslublari», «Musiqaning oddiy shakllari», «Qo'shiqlarda kuplet shakllari», «Syuita shakli», «Simfonik asarlar janrlari», «Musiqiy sahna asarlari» va boshqa shular jumlasidandir.

Garchi mazkur mavzu tizimi, uslubi yangi dastur tarkibida ishlab chiqilayotgan bo'lsada, ammo bu narsa keng o'qituvchilar tajribasiga xos tayangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Asarni badiiy yaxlit idrok qilish, ikkinchidan, dars tuzilishiga ham bog'liq, darsda turli musiqiy faoliyat turlarini (lirika tinglash, ashulla aytish, asarni musiqiy – pedagogik taxlil etish, musiqaning badiiy xususiyatini ayrim xarakterlarida ifodalash va hokazo yagona maqsad sari yo'llash va bu bilan darsni mazmunan qiziqarli tashkil etish lozim. Shu boisdan musiqa darsi kompleks dars tipiga kiradi. Darsda faqatgina ashula aytib bolalarni zeriktirishga yo'l qo'yilmaslik lozim.

Bu ularning qiziqishini so'ndiradi va ovoz aparatlariga ziyon yetkazadi. Dasturda turli musiqiy faoliyatlarni qo'llash bilan darsning o'ziga xos badiiy kompozitsiyasini vujudga keltirish mumkin. Darsning asosiy faoliyat turlarini darsning mantiqiy yahlitligidan ajratmagan holda qo'yidagilarga e'tibor beriladi:

Musiqani zehn qo'yib tinglay bilish bilan birga, uni his eti shva bu haqida o'ylash eng muhim ahamiyatga egadir. Qo'shiq aytish paytida har bir o'quvchi ishlashga va faol ravishda musiqiy fikirlashga o'rganishi kerak. Buning oqibatida bola musiqaga va qisman qo'shiq aytishga jiddiy qaraydigan bo'ladi, uning musiqa o'quvi tobora o'sadi va ikki ovoqli qo'shiq aytishga tayyorlanadi.

S.Boboyevning «Mehnat qo'shig'i» ustida to'xtalib o'taylik. Bu qo'shiq kuyning tahlili nuqtai nazaridan qiziqarlidir.

Kuyning dastlabki ikki takti uchta tovush asosida tuzilgan: birinchi taktda re notasi, ikkinchi taktda esa lya notasi uch marta takrorlanadi, uchinchi taktda esa sol notasi takrorlanadi, to'rtinchi taktda esa, endi ikkinchi taktda uch marta takrorlangan lya notasiga to'xtalinadi. Shundan keyingi ikkinchi jumlani tashkil etuvchi to'rt takt dastlabki to'rt taktning aynan o'zidir. Keyingi taktlarning deyarli hammasi oldingi tovushlarning qaytarilishidan iborat: 9, 11, 13 va 15 – taktlarda sol, 10 – taktda lya qaytariladi. Uchinchi va to'rtinchi jumlalarning oxiri bir – biridan farq qiladi. Kuyning tovush baland – pastligi rivojini tahlil qilishda ana shu paytlarni bolalar bilan ham amaliy, ham nazariy o'rganib yaiqish kerak. Bunday tahlil mavhum xarakterga ega emas, balki kuy qismlarini bevosita o'rganishi jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Kuyni o'zlashtirish jarayonida uni tahlil etish qo'shiq aytish paytida o'ylashga, eshitish nazoratini ishga solishga majbur etadi.

Mehnat qo'shig'i.

Bolalar o'rganayotgan qo'shiqning baland tovush jarangini xotirada uzoqroq saqlay olishlariga erishish uchun tovush balandligi xotirasini kuchaytirishi ustida

mashq qilishi kerak. Shu maqsadda qo'shiqni to'liq yoki qismlarga bo'lib bir necha marta aytib chiqish mumkin. O'quvchi bolalarning diqqat bilan, astoydil qo'shiq aytishlarini kuzatib boradi. So'ngra bolalar diqqati o'rganayotgan qo'shiqdan chalg'itiladi. Ammo shundan keyin o'qituvchi ularni yana kuy yoki uning qismi qanday yangraganligini esga olishga majbur etadi; bunda kuyning birinchi tovushni ovoz bilan emas, balki ichki musiqa o'quvi bilan eslashga o'rgatish lozim.

Bolalarni talaffuzga doimo ongli qarashga qunt bilan o'rgatib borish kerak. Har qanday kuydan hamisha unga murakkab bo'lmagan, ammo ma'lum sabablarga ko'ra bolalar darhol idrok qila olmaydigan ayrim tovushlar balandroq yoki pastroq ovoz bilan kuylanadi, deb bir qarashning o'zida ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgandek ko'rinadi. Ongli talaffuzida bunga yo'l qo'ymaslik mumkin. Lekin bu holda irodaviy zo'r berish zarur, chunki bunday qilish ovoz chiqarish bilan nafas olish musiqa o'quviga bo'ysundiradi. Shunga erishish uchun kuyi yuzaki yodlab olishga yo'l qo'ymasdan, o'ylab ish ko'rishga o'rgatish lozim.

Qo'shiq o'rgatish jarayonida talaffuz jihatidan keyin joylar oldidan hamma vaqt qo'ituvchining: «O'ylang!» - degan buyrug'i eshitilib turishi kerak.

X.Izomovning «Birga kuylaylik» qo'shig'ini o'rganar ekanmiz, bolalar mi tovushni (birinchi takt), sol (uchinchi taki), lya (to'rtinchi takt) va si (beshinchi takt) tovushlarini pasaytirib kuylayotganliklarini sezamiz. Bu tovushlarning F.Nazarovning «Paxtaoy» qo'shig'idan.

Tiniq – sof yangrash uchun irodaviy zo’r berish zarur, bu esa eshitish nazorati yo’li bilan tinglashicha zo’r berishini vujudga keltirishga majbur etadi. O’qituvchi shu notalarni talaffuz qilish oldida bolalarga: «mi notasi qanday eshitilishini o’ylang» yoki «lya notasi qanday eshitiladi?». «singari eslatishlari bilan ogohlantirib turiladi. Demak, talaffuz eshitishdan oldin ichki musiqa o’quvining yangrashi tayyorlanadi.

Tersiya, sof kvarta, kvinta, seksta singari ohangdagi intervallar dastlabki mashqlar uchu nasos bo’ladi. Bu mashqlarga asos qilib olingan intervallar yangrashining tonika doirasida tasavvur qilinmog’i kerak. Chunonchi, sol¹-si¹ tersiyasi – sol majorda, sol¹-do² kvartasi – do majorda, fa¹ – do² kvintasi – fa majordagi singari tasavvur etmog’i lozim.

Ikki ovozli qo’shiq repertuariga o’tishda melodik harakatning har xil turlariga doir mashqlar kiritiladi: davomli tovush yangrovdagi – bir ovozli melodik harakat:

Ana shunday mashqlar bilan birga bundan buyon bosqichma – bosqich melodik harakatga va sakrama harakatga mo’ljallangan ancha murakkab mashqlar ham o’rganib boriladi:

Ikki ovozda kuylash malakalari kichik hajmli kononlardan boshlab to kattaroq kanonlargacha bo'lgan asarlar asosda oshira boriladi.

Shuningdek, melodik tili sodda bo'lgan, esda qoladigan, yorqin talaffuzli kichik – kichik qo'shiq parchalarini mashqlar sifatida qo'lash ma'qul.

Ikki ovozli qo'shiqlar ustida olib boriladigan ishning dastlabki paytlaridanoq jo'rsiz ijro etish uchun mo'ljallangan ikki ovozli qo'shiqlarni o'rgana boshlash kerak. Jo'rsiz kuylashda melodik yo'nalmaning garmonik qo'shilishi haqiqiy ravishda eshitiladi. Bundan tashqari, cholg'u asbobi yordamisiz kuylash ikki ovozda qo'shiq aytish malakalarini mustahkamlashda alohida rol o'ynaydi, chunki bunday kuylash musiqaviy diqqatni bir nuqtaga to'playdi va mustaqil fikrlashga majbur etadi.

Ikki ovozli qo'shiqlarning murakkablik darajasi ashula darsida (musiqa madaniyati darsi) bolalarning musiqaviy o'sish darajasiga bog'liq bo'ladi. Paralel sinflarda o'quvchilarning soniga qarab bunday murakkablik birmuncha farq qilmog'i mumkin. Ikki ovozlikning murakkablik darajasini aniqlashda bolalarning musiqaga qobiliyatini nazarda tutish lozim. Turli musiqa asboblari cholib qo'shiq o'rgatishda har bir o'quvchiga individual muomala qilinganidek, qo'shiqni birgalikda o'rganishida ham shu usulni qo'llash kerak, chunki bunda har bir sinf o'ziga xos «kollektiv» o'quvchidir.

Ikki ovozli ustida olib borilayotgan ishning tayyorlov bosqichida keyin bolalarning musiqa qobiliyatiga qarab ovozlar bo'yicha g'ruppalarga taqsimlash kerak.

Musiqa o'qituvchisi har bir bolaning musiqa qobiliyatini ham o'rganadi. Umumiy ta'lim maktabida I – sinfdan boshlab butun musiqa o'rgatish davrida bolalarning barqaror musiqa xotirasi va diqqati aniqlab boriladi. Bu esa sinf xonasidagi xorlarda altlar va diskantlar guruhlarini to'g'ri tuzishga imkon beradi.

Ikki ovozlikni o'rganishning dastlabki davrida bolalarni partiyalarga shunday taqsimlashdan ko'zlanadigan maqsad ikki ovozli qo'shiq aytish malakalarini egallash jarayonini tezlatishdan iborat. Alt va diskant partiyalari tessitura shartlarining juda o'xshashligi bunga qulaylik tug'diradi.

Bolalarni qo'shiq ohangini tez eslab qolishga, uning ayrim elementlarini esa o'qituvchining kuylab berishi yoki cholg'u asbobida bir ikki marta ijro etishi bilanoq esda tutishga o'rgata borish juda muhimdir. Avval boshda bunga darrov erishib bo'lmaydi; ammo ko'p o'tmay bolalar ohangni toboro tezroq esda qoldira boshlaydilar, keyin esa ularda tezroq esda tutishga qiziqishi havas paydo bo'ladi, musiqa xotirasi aktivlasha boradi, demak, ta'sirchanlik idrok ham kuchayadi.

Qo'shiqdagi ikkiovozlik ustida olib boriladigan ishning turli usullari mavjuddir. Bulardan biri – xor partiyalarini notalar nomini aytib kuylash (solfedjio qilish) usulidir. Mashiqalarda bo'lgani kabi, ikki ovozli parchalarni notalar nomini aytib kuylash ohang tovushlarining balandlik holatini aniqlashtiradi. Bolalar notalar nomini esga olishar ekan, ohangni ham beixtiyor esga olishadi.

Ikkiovozlini mustahkamlash jarayonida qo'shiqni mana bunday aytish ham mumkin: uning bir ovozli joylari butun xor bilan ijro etiladi, ikki ovozli joylari esa – dastlab kelishib olinmay turib o'qituvchining dirijyorlik ishorasiga qarab altlar va diskantlar tomonidan navbatma – navbat to'rsiz ijro etiladi.

Agar sinfda alt va diskant gurppalari aniqlangan bo'lsa, endi muayyan maqsadni ko'zlab shunga o'xshash ish olib boriladi. Bu o'rinda musiqaviy fikrlashni tezlashtirishdan ko'ra, ko'proq ichki musiqa o'quvi bilan ohangning qanday yangrashini o'ylab, shu ohangni kuylashga diqqat bilan tayyorlanishi zarurligi nazarda tutiladi.

Bolalar o'z partiyalarini bilib olib, ancha dadillik bilan kuylashadi deb tasavvur qilaylik. Shu partiyalarni o'rganishida turli metodlardan, jumladan ohanglarni notalar nomini kuylash usulidan ham foydalanilgan, deb hisoblaylik.

Lekin, shunday bo'lsa ham, har holda, qo'shiq aytishida ikkiovozlik hosil bo'lmaydi, chunki altlar zo'r berib yuqorigi ovozga o'tib ketaverishadi. Demak, qandaydir bundan ham samarali bir metodni topish kerak. Bu holda qo'shiqni eng kichik tarkibiy qismlarga bo'lishga to'g'ri keladi:

Bu qismlar ustida solfedjio qilish usuli bilan ishlab, musiqa xotirasini aktivlashtira borish va har bir notaning qanday yangrashini esga olishga zarurat tug'dirish lozim.

Birinchi parcha alt va diskant guruhlariga navbatma navbat: «fa notasi qanday eshitilyapti», «lya notasi qanday eshitilyapti?» - deb savollar beriladi. Savollar xuja tez berilmog'i, javoblar esa to'liq va ravshan bo'lmog'i kerak, naqoratning bu elementlarini shu usulda so'zlari bilan ham mashq qilib bilib olish lozim. Bu holda o'qituvchi alt va diskant partiyalariga murojat qilar ekan: «Altlar, siz «hamma» so'zini qanday aytyapsiz?», «Xo'sh, bu so'z diskantlarga qanday eshitilyapti?» kabi savollar berishi mumkin. Bolalardagi tovush balandligi xotirasini kuchaytirishini shu tarzda ohangning kichik – kichik parchalari asosida mashq o'tkazib, naqoratning kichik parchalarini bir butun qilib qo'shishda naqoratning samarali ikkiovozlik tovush jarangini hosil qilishga erishiladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tajribasiz pedagoglar ikki ovozli qo'shiq ustida olib boriladigan ishda, hatto yakunlovchi davrda ham, altlar partiyasini kuylab yoki cholg'u asbobida chalib yordam berib turadilar. Bolalar shu partiyani eshitadilar va buncha o'z ovozlvrini qo'shadilar. Bunday yordam ularni juda dadillashtiradi, tovush yangrashini ravjanlashtiradi va ravonlashtiradi. Ammo muayyan bosqichdagina altlar partiyasiga shunday yordam berish mumkin, chunki chetdan doim melodik yordam berilib turar ekan, hatto eng qobiliyatli o'quvchilar ham qo'shiq aytishda o'zlariga ishonch hosil qilolmaydilar va mustaqil suratda musiqaviy fikrlashga o'rgana olmaydilar. Vaholanki ayniqsa ikkiovozli qo'shiqni aytishda, mustaqil fikrlash g'oyat muhimdir.

Buning ustiga, agar darsda o'qituvchining o'zi ko'p kuylay bersa, u katta vokal nagruzkani bajaradigan ovoz apparatini haddan tashqari charchatib ko'yadi, yana bolalarning kuylashni diqqat bilan tinglay olmaydigan va nazorat qilolmaydigan bo'lib qoladi.

Ikki ovozli mashqlarni ijro etishdagi kabi, uch ovozli mashqlarni solfedjio qilish ham yaxshi natija beradi.

Qo'shiqlardan olingan parchalardan mashqlar sifatida foydalanish mumkin. Uch ovozli qo'shiqlar ustida olib boriladigan ishdan bir necha dars oldin ayrim qo'shiqlardan olingan parchalar ustida mashq qilish ma'qul:

«Yoshlik» qo'shig'idan.

Bunday mashqlar vaqtini ancha tejab, uch ovozli qo'shiq aytish malakalarini hosil qilishga va repertuarni o'rganib olishga yordam qiladi.

Uch ovozli mashqlar tufayli endi bevosita qo'shiqlardagi uchovozlikni egallash uchun tegishli usullar bilib olinadi.

Xor partiyalarini notalar nomini aytib kuylash va o'rganish, qo'shiqni ayrim element – mashqlarga bo'lish, uning uch ovozli parchalarini ritmik shaklsiz, o'qituvchining qo'l ishorasiga qarab har bir akkordga to'xtalma (fermata) bilan aytish kabi usullardan foydalanib uchovozlikning sofligi va ravshanligiga erishadi.

Xor bilan ashula aytishga yetarli vaqt ajratilgan taqdirdagina, ya'ni ashula darslarida emas, balki musiqa tarbiyasi bo'yicha sinfdan tashqi mashg'ulotlarda – maktab xor to'garaklarida uchovozlikning juda xilma – xil, mukammal yangrashiga erishish mumkin.

Agar maktab xor kollektivi ikki ovoz bilan dadil va ravshan qo'shiq aytishini bilib olib, uch ovozli asarlarni o'rganishiga o'tar ekan, bunda dastlabki ishning o'zi bilangina kifoyalanib qolish yaramaydi. Birinchi uch ovozli qo'shiqni o'rganib bo'lgach ikkinchi, uchinchi va boshqa qo'shiqlarni ham o'rganib borish lozim. Ushanda xor kollektivining repertuarini asosn uch ovozli asarlar asosida tuzish kerak bo'ladi. Uchovozlik xor tobora dadilroq yangray boshlaydi, shu sababdan xor qatnashchilari uchovozlik musiqa asarlarini sonlik bilan o'zlashtira olgach, komil ishonch bilan ular endi uchovozli asarlarnigina emas, to'rtovozlik asarlarni ham ijro eta olinadi. Bunday davrda xor kollektivi musiqa tarbiyasi tovush yangrashi, hamohanglik va uslub singarilarning intonasion doirasini murakkablashtirish tomoniga qaratish, demak, cholg'u jo'rsiz ijro etiladigan asarlarning sonini ko'paytirish tomoniga yo'naltirishi mumkin.

III-bob. QO'SHIQ KUYLASH ORQALI O'QUVCHILARDA NAFOSATNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

3.1. Musiqa san'ati vositasidagi estetik tarbiyaning mohiyati va vazifalari.

Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida tarbiya nixoyatda muhim masaladir. Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o'zida ahloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiyaviy vazifalar orasida keshilarda estetik did va extiyojlarni shakllantirish katta rol o'ynaydi.

Estetik tarbiya tizimida san'at yetakchi o'rinda turadi. Hozirga qadar estetik tarbiyaning mazmuni hamda vazifalari turlicha talqin qilinib kelgan. Ko'pchilik olimlar did va extiyojlarni tarkib toptirish vositalari, shakllari hamda usullarining tizimi sifatida qaraydilar. Bu esa estetik tarbiyaning shaxsda faqat badiiy jihatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bir tomonlama mazmunini ifodalaydi.

Estetikani chinakam tushinadigan kishilarni kamol toptirishi uchun estetik tarbiya boshqacha yondashish zarur. Estetik tarbiyaning mazmuni va vazifalarini ifodlashda hamda belgilashda estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim qismi ekanligini, unga tarkibiy bog'liqligini va ana shu tarbiyadan kelib chiqqanligini hisobga olish kerak.

Estetika faqat tabiatdagi va san'atdagi go'zallikni emas, balki umuman xayotdagi va jamiyatdagi go'zalliklar to'g'risidagi fandır. Estetik tarbiya chinakam go'zallik muhabbatni shakllantirishni bemazagarchilikka bemanilikka nisbatan nafrat uyg'otish, go'zallik yaratishga intilishni va go'zallik yarata olish ko'nikmasini, san'at hamda xayotdagi xunukliklarga qarshi kurashish iqtidorini tarkib toptirish lozim. Manna shu murakkab vazifalarni muvafaqqiyatli hal qilishi uchun haqiqiy estetik tarbiya bilan ma'naviy tarbiya o'zaro diolektik bog'lanishi shart. Estetik tarbiya ma'naviy masalalar bilan yo'g'irilishi kerak.

San'at va hayotni estetik jihatdan to'g'ri idrok etishning o'ziyoq shaxsni ma'naviy yuksaltiradigan va vosita ekanligini unutmaslik lozim. Estetiklikni ma'naviylikdan ajratish mumkin emas. Binobarin har qanday shakl muayan

mazmunning in'ikosi bo'lib, san'atning istalgan turi xayotni, eng avvalo, uning ijtimoiy ma'naviy normalarini aks ettiradi. Estetiklik voqyelikning hamma sohalarida namoyon bo'ladi. Bular kishining san'atga estetik munosabati, estetik xissiyoti, tabiatdagi san'atdagi mehnatdagi odamlarning xatti – xarakatidagi, xayotiy voqyealaridagi estetiklik va xokazolardan iboratdir.har qanday narsa yoki voqyeani estetik baholay olish shaxsning ajralmas sifatidir. Ammo ana shu baholashning xarakterini uning obyektivligini kishining estetik tarbiyalanganlik darajasi belgilaydi.

Har qanday rosmana insonda voqyelikka tabiatan estetik munosabat bo'ladi. Inson narsa va xodisalarni sezgi orginlari orqali idrok etar ekan, ularda beixtiyor estetik ta'sirlanadi va ularni muayan tarzda baholaydi. Lekin ana shu ta'sirlanish va baholashni qandayligini ham inson estetik jixatdan qanchalik tarbiyalanganiga bog'liq bo'ladi.

Demak voqyelikni estetik idrok etishda estetik tarbiya xal qiluvchi rol o'ynaydi.

Estetik idrok xissiyotlarga, sezgilarga asoslanadi. Xususan sezgi organlari estetiklikni o'ziga xos yo'sinda qabul qiladi. Tevarak olamdagi idrok etilayotgan narsalar va xodisalarni sezgi organlari qayta ishlaydi va taasurot hosil qiladi. Ammo idrok etilgan narsa va xodisani estetik baholash aql, ong, insonda tarkib topgan estetik hamda ma'naviy normalar ta'sirida amalga oshadi.

Shaxsning voqyelikka estetik munosabati ijtimoiy munosabatlar hali maqsadga muvofiq tarbiya ta'sirida shakilanadi. Voqyelikka rosmana estetik munosabat narsa va xodisalarni sezib idrok etishni ham ijtimoiy mazmunni va ularning inson ongi hamda ma'naviy normalari bilan belgilangan ijtimoiy baholashni ham o'z ichiga oladi. Estetik idrok estetik baholashda sezgilar, fikrlash va iroda shaxsiy va ishtimoiy narsalar qo'shilib ketadi. Estetik tarbiyaning vazifasini va mazmunini to'g'ri belgilash uchun umuman estetikaning va xususan san'atning vazifalarini aniq tassavvur etish kerak estetik idrok faqat zavqlanish, izzatlanish bilan cheklanmaydi, shuningdek u kishida yoqimsiz xis tuyg'ularni.

Masalan: dard – alam, qayg'u, achinishni vujudga keltirish ham mumkin. San'at xayotni aks ettirar ekan, uning faqat go'zal tomonlarini ifodalab qolmaydi, albatta, san'atning predmeti xayoti va uning xilma-xilligi, barcha ziddiyatlari, quvonchlari g'am tashvishlaridir. Sa'natning maqsad insonda dunyoga g'oyaviy – hissiy estetik munosabatli tarbiyalashdir. Bizningcha, estetikning predmet iva obyekt faqat san'at hamda uning insonga ta'siri emas, balki shular bilan birga butun voqyelik, xayot mehnat va insonning murakkab ruxiy soxasidir san'atga xayot bilan chambarchas bog'liq hamda qarash lozim.

San'at to rivojlanishi darajasida bog'liq va uning o'zi ham ijtimoiy taraqqiyotning xarakteri hamda sur'atiga faol ta'sir etadi. San'at kishilarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

San'at ijtimoiy xayotda, mafkuraviy kurashda dommo katta o'rin tutgan va shunday o'rin tutadi.

Yuqoridagilar hammasini nazarda tutgan hamda ta'kidlash lozimki, estetik tarbiya tizimini yaratishda san'at xayotning barcha tomonlari bilan bog'liqligini hisobga olish zarur. Binobarin san'at faqat estetik hodisa emas, balki g'oyaviy hodisa hamdir. Shunga kura ko'ra estetik tarbiyaning muhim qurolidir. San'at ijtimoiy voqyelikni aks ettiradi, uni muayan darajada g'oyaviy baxolaydi, kishilarni turlicha idrok qilishga, voqyelikdagi har – xil fakt va xodisalarni baholashga yo'naltiradi. Mana shularning hammasi san'atning g'oyaviy vazifalarini belgilaydi.

Estetik tarbiyaning juda ko'p vositalari orasida san'at alohida o'rin tutadi va buning sababini qo'yidagilar bilan izohlash mumkin.

1. Har qanday san'at asarida obe'ktiv voqyelikning biror tomonini estetik va ma'naviy jihatdan baholash yaqqol yoki yashirin halda mavjud bo'ladi.

2. San'at o'z tabiatiga ko'ra emosionaldir va shuning uchun u kishilarning hissiyotiga ta'sir ko'rsatib ularda hamdardlikni muayan emosional baholash taassurotini paydo qiladi.

3. San'at madaniyatning keng oshadi eonli qiziqish uyg'otadigan sohasidir.

4. Bizning jamiyatda faqat xalqning madaniy saviyasi oshganligi uchun emas, balki texnikaning, xususan kino, radio va televideniyaning rivojlanish sharofati bilan ham san'at barchaga barovaridir. Hozir san'at bilan deyarli har kuni muloqatda bo'lmaydigan oilalarimiz yo'q.

5. San'at bilan bog'lanishi insonning dunyosini boyitadi, unda go'zallik qonunlari bo'yicha yashash ishtiyoqini uyg'otadi.

Quyida estetik tarbiyaning vositalaridan biri bo'lishi ashula san'ati xaqida to'xtalamiz. Ashula aytish san'atining alohida o'ziga xo'sbir turidir. Ana shu o'ziga xoslik qo'shiqda musiqa, kuy, she'riy asar hamda ashula ijrochiligining tarkibiy ravishda qo'shilib ketishida o'z ifodasini topadi. Musiqaning estetik tarbiyasidagi roli falsafa, musiqashunoslik va pedagogikaga doir adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Ammo ashula san'atining shaxsini shakllantirishdagi roli xaligacha ilimiy yoritilmagan. Buning sababi, bizningcha ashula san'ati strukturasi murakkabligi va uning insonga, inson ongiga ta'sirining ko'p qirraligidir.

Qo'shiqlar xalqning xayotida va mehnatda mustahkam o'rin olgan.

Ular xalqning o'z tarixiy rivojlanishining hamma bosqichlarida sodiq yo'ldoshi hisoblanadi. Qo'shiq faqat xalqning xis – tuyg'ulari va intilishini ifodalash bilan emas, balki g'oyat samarali tarbiyaviy hamda da'vatkor kuch sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Xulas qilib aytganda qo'shiqlarda yosh avlodni estetik va ma'naviy jihatdan tarbiyalash uchun boy imkoniyatlar mavjud. Ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanish tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda juda katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qo'shiq kuylashga o'rgatish umumta'lim maktabining amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muhit masalasidir. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylash usuli musiqaviy qobiliyatning rivojlanishi cholg'u malakasini shakllantirishda, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb yetadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdan, balki eshitish qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Nafas yo'llarini rivojlantiradi. Xullas qo'shiq tinglash har bir bolaning o'ziga jalb qiluvchi har

tomonlama foydali va samarali natija beruvchi jarayondir. Bolalarda kuylash malakalari bir vaqtning o'zida va bir – biriga bog'liq holda shakllanishi maktab o'quvchilariga musiqa fanlari o'qitishdagi ba'zi uslublarning qayta ko'rish maqsadga muvofiq ekanligini dalolat ko'pincha musiqa o'qituvchilari kuylash malakalari hosil bo'lish jarayonini tarbiyalashda bu malakalarni bir-biriga chambarchas bog'liqligini hisobga olmaydilar, hamda bu malakalarning bir sistemada shakllanishiga e'tibor bermaydilar. Birorta malaka bir – biridan ajratilgan holda rivojlanmaydi.

Bolalarga qo'shiq kuylashni o'rgatish jarayonida o'qituvchi o'z bilimini ular ongiga yetkazish uchun shunday qulay vaziyat vujudga keladi, bunda eng muhimi o'qituvchi bolalarning musiqani to'g'ri idrok qilishga tayyorlashi yuksak darajada bo'lishi kerak. Bu jarayonning amalga oshirilishida qatori, diqqat va emosional ko'taringi ruh yordamga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlari shuni takitlaydiki, ijodiyotni rivojlantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa butun o'qish jarayonida bo'larsiz tassavur qilib bo'lmaydi. Musiqa darslarida xotirani kuchaytirish va rivojlantirishning asosiy uslublaridan bir o'qituvchilarning kichik va qisqa ko'lay mashqlarni tez-tez takrorlashi va kiyinchalik ushbu mashqlarni kengaytirib va kuchaytirib borishidir. Kuylash malakalarining shakllantirishida musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan talablardan biri bolalarni ushbu mashqlarga qiziqtirish, bolalarning musiqa olamiga shunday olib kerish kerakki bunda ular o'qituvchining har doimgi talablaridan zirikmasinlar, agar o'qituvchi o'z xotirasini faximlay ola bilsa kuylash malakalarining shakllanishi jarayonining samaradorligi osha boshlaydi. Bu tajjaga erishish uchun o'qituvchidan jiddiy ma'suliyat talab qilinadi. Bolalar titik ko'tarinki ruh kayfiyatida bo'lsalar, ularning fikrlash qobliiyati aktivlashadi. Shu bilan bolaning musiqani idrok qilishida ham chuqar, emosional his-tuyg'u holati paydo bo'ladi. Bu holat kuylash jarayonida ijobiy natijalar hosil bulishiga olib keladi.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rinni tutgan, inson shazsiyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi esa, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qiralaridan biribir, u atrofdagi go'zal

narsalarni to'g'ri idrok yetishga va qadrlashga o'rgatadi. O'quvchilarga nafosatli tarbiya berishda umumta'lim maktablaridagi, Musiqa madaniyat darslarini ahamiyati katta. O'quvchilar nafosat hissini, san'at sirlarini tushunishni va qadrlashni, san'atdan tahramand bo'lishni, avvalo maktablarga o'rganadilar, didini shakllantirish uchun esa, Musiqa madaniyati darslari bilan bir hatorda sinfdan tashqari Musiqa tarbiyasini ahamiyati katta. Chunki, sinfdan tashqari Musiqa tarbiyasining ommaviy va to'garak shakllarida bolalar yalpi tarzda jalb etiladi. Zotan, Musiqa tarbiyasi sozanda yoki xonandani emas, yeng avvalo insonni tarbiyalaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqa, go'zallik olamiga olib kiradi, Chunki, musiqa inson hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega va ahloqiy – nafosat tarbiyasining muhim vositasidir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umirbod musiqadan zavq topadi. Musiqadan oziqa olish uchun esa, inson yuksak madaniyatli, sof qalb yegasi, go'zallikni xis eta oladigan bo'lishi kerak. Olimlardan birlari: «Odam shaxs bo'lishi uchun, u ruhiy tomonidan rivojlanishi, o'zini bir butun inson deb his qilmog'i kerak» - degan edi.

3.2.Qo'shiq quylash musiqiy – ta'lim tarbiyaning yetakchi faoliyati.

Musiqqa madaniyati darsi – maktabda musiqiy tarbiyani tashkil etishning asosiy shaklidir. Maktabda musiqiy to'garaklar fakultativ mashg'ulotlar olib borishadi. ammo dars hamma bolalarni yalpi qamrab olishi sababli hych qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Musiqqa darslari boshqa fanlar darslaridan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko'proq, zavq emosional tuyg'ular va kechinmalar uyg'otish bilan ajralib turadi.

Musiqqa ayniqsa bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, musiqqa darslari xorda kuylashlar, musiqqa tinglash, musiqqa savodi, musiqiy ijodkorlik kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarga musiqiy tarbiya berishning asosi qo'shiq aytish, chunki musiqqa bo'lgan qobiliyatni o'stirish musiqqa san'atiga bo'lgan qiziqishni vazifalari o'quvchilarning o'z faoliyatlari jarayonida muvofaqqiyatli bajarishadi. Qo'shiq kuylash bolalarni musiqqa faol jalb etishning eng asosiy shaklidir.

Qo'shiq kuylash o'quvchilarda qo'shiqchilik madaniyatining rivojlanishiga, ularning umumiy va musiqiy rivojiga ichki dunyosining tarbiyasiga, dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiqning ifodasi ijrosi bolalarning hissiy ta'sirchanligini o'stirib, musiqiy obrazlarni yanada chuqurroq tushunishlariga, ularda musiqiy did va ehtiyojlarning shakllanishiga yordam beradi. Qo'shiq kuylash har bir bola uchun estetik hissiyotlar, kayfiyatlar, kechinmalar va badiiy ehtiyojlarni ifodalashning oddiy va tabiiy yo'lidir. Qo'shiqda estetik tarbiyaning ikkita ta'sirchan vositasi so'z va musiqqa birlashadi.

Qo'shiq o'rgatish jarayoni doimiy vokal mashqlar aytishni va kuyni diqqat bilan tinglashni, uni to'g'ri qaytarish va eslab qolishni talab etadi. Shuning uchun u umumiy musiqiy tarbiyaning eng ommaviy, ta'sirchan vositasidir. Birgalikda kuylash o'quvchilarni bir ijodiy jamoa qilib birlashtiradi. Jamoaviy qo'shiq kuylashda ovoz va eshituv xususiyatlari turlicha rivojlangan bolalar birlashadilar, bu esa o'ziga ishonchi kam bo'lgan, uyatchan bolalarni ham ijodiy ishga jalb etadi.

Qo'shiq kuylash tufayli bolalarda metodik, garmonik his – tuyg'ularini his etish sof intanasiya faol rivojlanadi, kuylash apparati mustaxkamlanadi, nafas rivojlanadi, qomat to'g'rilanadi, qon aylanish yaxshilanadi. Bu o'quvchilarning jismoniy o'sishga ham ijobiy ta'sir etadi.

Qo'shiq kuylatishda o'qituvchi oldida quyidagi vazifalar turadi.

- bolalarni jamoaviy kuylashga qiziqtirishi;
- musiqa emosional ta'sirchanglikni o'stirish;
- badiiy didni tarbiyalash;
- qo'shiqchilik ovozini rivojlantirish chiroyli, tabiiy kuylashni shakllantirish, diapazonni kengaytirish;
- badiiy ifodali, ongli ijroning asosi bo'lgan vokal – xor malakalarini o'stirish;
- melodik, ritmik, garmonik eshituvini har tomonlama rivojlantirish.

Qo'shiq kuylash uchun tinglangan qo'shiqlar xilma – xil janrda bo'lib, ular ko'proq milliy musiqamizdagi lirik qo'shiqlar, hazil, bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar o'yinlarini uynash uchun mos keladigan kuy, qo'shiqlar, marsh va vals kuylarini o'z ichiga olgan. Shuningdek dasturlarga qardosh va chet el kompozitorlari asarlaridan ba'zi namunalar ham keltirilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir sinfda, har bir o'quv yilda 12-14 qo'shiq o'rganadilar. Shu davrda ular asosan bir ovozli qo'shiqlarni kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradilar va ayni paytda ikki ovozli kuylashga tayyorgarlik ko'radilar III sinf 3 choragidan boshlab ikki ovozli elementlari bor qo'shiqlar tavsiya etiladi.

Musiqa asarni idrok qilish, g'oyaviy jixatdan yaxlittaassurot qoldirish uchun ularni o'rganishda bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonuniyatlari, ijrochilik turlari yoki uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanish katta ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, dars tuzilishiga ham bog'liq. Darsda bir necha musiqiy faoliyat turlarini musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, asarni musiqiy pedagogik tahlil etish,

musiqaning badiiy xususiyatlarini ritmik xarakterlarda ifodalashni maqsad sari yo'naltirish va bu bilan dars mazmunini qiziqarli tashkil etish.

1. Qo'shiq kuylash orqali o'quvchilarning his – tuyg'ularini shakllantirishda musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili bo'lib, u garmonik rivojlangan shaxsning kamolatga yetishi uchun unga muhim ta'sir etuvchi jarayondir.

Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlarini qoniqarli uyushtirish yosh avlodni ichki dunyosini boyitish va san'atning to'g'ri tushinishdagi yagona yo'lidir.

Musiqa kishilar extiyojini qondirib berar ekan, ularning ongini shakllantirishga ko'maklashadi, xis – tuyg'ularini boyitadi. Shaxsdagi ijtimoiy xususiyatlarni tarbiyalashga katta yordam beradi.

Bolalikda erishilmagan narsaga kamolat yoshida erishish qiyin bo'ladi. Katta yoshli kishining xayoti, uning atrofdagi voqyelikka munosabati ko'p jixatdan bolalikda olgan tarbiyaga borib taqaladi. Umumta'lim va xunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida shunday qayd etishgan «Nafosat his – tuyg'usini rivojlantirish yuksak estetik didni shakllantirish, san'at asarlariga baho berish mahoratini shakllantirish kerak.

Umumta'lim maktabidagi musiqa ta'limi tarbiyasining muvofaqqiyatli boshlang'ich sinflarda boshlab musiqa darslarining qay darajada uyushtirilganligi va tashkil etganligiga bog'liqdir. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan estetik zavq uyg'ota bilishi kerak. Bu uchun avvalo o'qituvchining o'zi musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi va quyidagi tadbirlarni amalga oshirish, kerak.

- bolaning musiqaga nisbatan ijobiy munosabatini tarbiyalash;
- qo'shiq kuylash va tinglashga o'rgatish;
- darsning har bir bo'lagini, musiqa haqidagi har bir ma'lumotini kichik yoshdagi o'quvchilar quvnoqlik va qiziqish bilan qabul qilishlariga erishish.

Musiqaviy tarbiya, bolalar musiqaviy qobiliyatining rivojlanishida maktab o'quvchilari estetik tarbiyasining qismidir. Musiqaviy estetik tarbiya masalalari kunda muhim ahamiyatga ega. Bola shaxsining shakllanishi jarayonida uning estetik madaniyat asosida har tomonlama badiiy rivojlanishi o'qituvchidan jiddiy

mas'uliyatni talab qiladi. Chunki boshlang'ich sinfdagi musiqa tarbiyasi bolaning mehnatga, Vatanga va burchga bo'lgan muhabbatini shakllantiradi, tarbiyalaydi hamda uning butun xayoti mobaynida unga hamrox bo'lib boradi.

Insondagi musiqaviy xazinalar yosh bolalarning ichki dunyosiga singib borishi asosan boshlang'ich maktabdan boshlanadi.

Musiqa darslarining mazmunida faqat ma'lum bir musiqa materialni o'zlashtirish emas, balki o'quvchilarning ongini voqyelikka munosabatini rivojlanishi, estetik va xulq madaniyatining shakllanishida o'zgarishlar nazarda tutiladi. Bolalarning musiqaviy estetik tarbiyasida musiqa madaniyati darslarining ijodiy tarzda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining darsga ijodiy yondashishi bir qancha foydali maslaxatlarni o'z oldiga qo'yadi.

- musiqa tarbiyasida yangi usul va vositalar izlash;
- xayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash;
- musiqa san'atining mazmun va ma'nosini tushintirish maqsadida aniq fakt va misollarini ishlatish;

O'quvchilarni badiiy estetik ruhda tarbiyalashda, ular qalbida go'zallikka xavas uyg'otishda san'atning barcha turlari qatori qo'shiqning xizmati benixoya kattadir. Har bir zamonda bastakorlar, shoirlar va xonandalar xalq tafakkurini va xayotini ko'rsatuvchi juda ko'p qo'shiqlar yaratganlar.

Ularning har bir usul ritm vositasida xis hayaajon uyg'otuvchi, mazmuni jihatdan esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr muloxaza yuritishga majbur qiluvchi ta'sirchan kuchga egadir.

Madaniy merosga to'g'ri yondoshish, undan unumli foydalanish masalasiga Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng e'tibor kuchaydi va taniqli olim va pedagoglar tomonidan dasturlar o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar chop etildi. Lekin bu tadqiqotlar qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati mazmuniga to'xtalga vazifasini o'z oldiga qo'ymadi.

Qo'shiq yoshlar diqqatini go'zallik, yaxshilik, insoniylikka jalb etishda katta ta'sir kuchiga ega ekanligini nazarda tutib, maktab xayoti qanday musiqa ruhi bilan sug'orilganligiga ahamiyat berish zarur. Bolalar uchun tushunarli, ular tomonidan

ko'p kuylanib turadigan kuy, qo'shiqlarni tanlash, ularda ashula asarlarini qayta-qayta tinglash va ijro etish istagini uyg'otish, har xil yangi ta'surotlarga ega bo'lishlariga erishish kerak.

Bolalarga atalgan qo'shiq va kuylar bir qatorda folklor qo'shiqlar, serjilo serqirra oxanglarga boy bo'lgan mazmunli klassik qo'shiqlarni o'quvchilarga o'rgatish ularda bu san'at merosiga nisbatan muxabbat to'yg'ularini va uni xurmat qilishga o'rgatadi.

Musiqqa o'qituvchilari o'z o'quvchilariga kuy, qo'shiq o'rgatishda ijro yo'liga ijro maxoratini oshirish usullariga e'tiborlarini qaratish bilan birga o'rganilayotgan asar mohiyatini tushinib tahlil qilib, mazmuni, tarixi haqida ma'lumot berishga yetarlicha e'tibor berishlari kerak.

Boshlang'ich sinflarda musiqqa tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish darsda o'qituvchining optimal metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Ammo maktabda musiqqa o'qitishning optimal metodlari va ulardan foydalanish usullari amaldagi qo'llanmalarda yetarlicha ochib berilmagan. Xozirda qo'llanilayotgan metodik qo'llanmalarda asosan musiqqa darsining o'ziga xos xususiyatlari strukturaviy tuzishlari, musiqqa faoliyati turlari va ularni amalga oshirish uslublari bayon etilgan.

Bizning nazarimizda, musiqqa o'qitishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorlik va o'quvchilarning bilish jarayonida mustaqil izlanishga undovchi metodlar tizmini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonida o'quv materiallarning bolalarning bili shva tajribasiga mosligi, bolalar ovozinig rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarlarni bolalarni fikriy qobiliyatiga mos eti shva boshqalar darsning asosiy instruksiyalarini tashkil etadi.

Bu uchun o'qituvchining tushuntirish vositalarining maqsadga muvofiqligi aniq va ravonligi bolaning so'z fikri boyligiga mosligi vokal mashqlari va qo'shiqlar esa ularning ovozi va kuylash malakalariga mos tuzishi shart.

Ashula qo'shiqning his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga xayot, davr aksidir o'quvchilarning xayotiy tajribalariga tayangan xolda har bir musiqqa asari zaminida

ma'lum voqeyelik his – tuyg'u va fikrlar aks ettirishishi xaqida tushincha berishadi. Bu faqatgina dars asarlarida turli musiqa faoliyatlarini bajarishda, asar va uning obrazlarini idrok etish bilan amalga oshiradi. Musiqani eshitib anglab uning xarakteriga muvofiq turli faoliyatlarini amaliy bajarish.

Ashulaning musiqiy tuzilishi xarakteri, ifoda vositalari xayotdagi o'rni jihatidan o'rganib quydagi bosqichlarda o'zlashtiriladi.

1. Asarni tinglashga bolalar diqqatini jamlash va asar xaqida o'qituvchining kirish so'zi.

2. O'qituvchi ijrosida yoki gramzapisda asarni tinglash.

3. Asarni suxbat yo'li bilan musiqaviy – badiiy jihatdan oddiy taxlil etish.

4. Asarni butunlikcha qayta tinglash, so'ngasar xaqida bolalarning umumiy ta'surotlari yuzasidan yakuniy suxbat o'tkazish.

Mazkur ishlar jarayonida bolalarda asar xaqida bilish tushunchasi va kunikmalari hamda umumlashma badiiy ta'surotlar va jarayonlar xosil bo'lib boradi. Taxlil davomida musiqa tuzilishiga doir o'rganiladigan yangi terminlar o'rganilib boriladi. Asarni tinglash bolalarning psixologik rivojlanish va axloqiy estetik tarbiyasi uchun o'qituvchining eng faol shakli hisoblanadi.

Bolalarning ashula kuylashda tovushlarni to'g'ri shakllantirib, mashq va qo'shiq so'zlarini ifodali, aniq va xushoxang talaffuz etishga erishish vikal – xor ishlarining ijodiy olib borishlaridamuhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarning badiiy – estetik ehtiyojini qondirishda sinfda olingan bilim va maxoratlarini boyitishda kengaytirish va amaliy faoliyatlarida qo'llashda sinfdan tashqari musiqa tarbiyaning ahamiyati benihoya kattadir.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimiga maktabda olib boriladigan barcha musiqa to'garaklari, musiqaviy bayramlar, musiqa kechalari, xavaskorlar konsertlari, musiqali viktorinalar va boshqalar kiradi.

3.3. Boshlang'ich sinflarda qo'shiq o'rganish metodlari.

Boshlang'ich sinf dasturlariga kiritilgan ashulalar ham kichik yoshdagi o'quvchilarning yoshlariga mosligi, mazmunan rang-barangligi, qiziqarli va xushoxangligi bilan alohida ajralib turadi. Unda ona-Vatan, go'zal tabiatni kuylovchi, yil fasllari, qushlar va xayvonot olami haqidagi lirik, raqs, xazil mutoiba xarakteridagi ko'plab ashulalar o'rin olganki, ular o'quvchilarning estetik zavqini oshirib borishga, tarbiyaviy vazifalarni bajarishga va ashula aytishda zaruriy malakalar hosil qilishga yordam beradi.

Samarqand shaxar 26 – maktabda amaliyot o'tish jarayonida O'zbekistonda an'anaga aylanayotgan qo'shiq bayrami tufayli dunyoga kelayotgan yangidan – yangi qo'shiqlarimiz bolalar qalbiga tez kirib borayotganligi, ularda zavq – shavq uyg'otayotganligining guvohi bo'ldik. Bu qo'shiqlar nafaqat matn jihatdan zamonaviyligi bilan ajralib turadi, balki musiqiy tilning boyligi, kuylarining jo'shqinligi bilan ham o'quvchilarni o'ziga jalb etadi.

Ularning dilida bir umr qolishi, hayoti davomida hamroh bo'lishi mumkin, bunday qo'shiqlarni musiqiy madaniyat darslarida o'rganish o'qituvchidan mas'uliyat va mahorat talab etishni o'z amaliy ishimizda his etdike

Amaliyot davomida ko'proq boshlang'ich sinflar bilan ishlashga to'g'ri keladi vash u sinflarda qo'shiq o'rganish metodlarini yaratildi. Boshlang'ich sinflar qo'shiq repertuari o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini va nafosat tarbiyasini rivojlantirishning negizi bo'lib xizmat qiladi. Chunki maktab dasturi nafaqat o'quvchilarning qiziqishi va extiyojlarini, balki ularning muntazam ravishda rivojlanishlari xususiyatlarini ham hisobga olgan holda tuzilgan.

O'qituvchi dasturda ko'rsatilgan ayrim qo'shiqlarni o'zlashtirish quydagi xususiyatlarga e'tibor berish zarur. I-II – sinf o'quvchilari bir qator psixofiziologik xususiyatlarga egalar:

- organizim to'la shakllanmagan, nozik bir turdagi xolat faoliyati, umuman, bir xillikdan tez charchash;

- miya faoliyatida sistemali ishlash jarayonlari yo'qligi, ammo eslab qolish faoliyatining kuchliligi,

- diqqat – e'tiborining turg'un bo'lmasligi, serxarakatchanlik, o'yinqarolik;
- tasavvurning yorqin obrazliligi, konkretligi, shuning uchun musiqa xarakterini konkret obrazlar bilan bog'lashda juda oddiylashtirishga yo'l qo'ymaslik, ya'ni past tovush aniq, baland tovush qo'shiqlar va xokazo.

- o'yinga bo'lgan moyillik; o'yin shakllari orqali murakkab materiallar ham oson o'zlashtiriladi. O'yin tasavvur, diqqat, xotirani faollashtiradi, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Musiqa o'qituvchisi qo'shiq o'rganish jarayonida bu xususiyatlarni doimo esda tutgan holda ish olib borish samaradorlikni oshirishga, bu sinflarda qo'shiq o'rganish jarayoniga qo'shiqqa emosional munosabatni rivojlantirish tasavvurini, musiqiy eshituv va xotirani o'stirish musiqaning ifoda vositalarini ahamiyatini tushinish jarangli, kuychan, yengil chaqqon tovushlarda kuylash, o'zini va o'rtoqlarini tenglash, tanish qo'shiqlarni jo'rsiz yoki jo'rlikda ifodali kuylash kabi vazifalar amalga oshiriladi.

K.Kenjayeving «Kichintoymiz - g'ijintoymiz», N.Norxo'jayevning «Nevaralar qo'shig'i», «Xakkalar», A.Mansurovning «Piyoda askarlar qo'shig'i», D.Omonnullayevning «Qo'limizda bayroqcha», «Diloromning qo'shig'i», A.Maxmudovning «Yulduzlar», «Qug'irchog'im allayo», A.Berlin «Shirintoy», K.Abdullayevning «Kichkintoy gijingtoymiz» kabi ko'plab bastakorlar qo'shiqlari, «Boychechak», «Bu bog'chada olcha» kabi o'zbek xalq bolalar qo'shiqlari boshlang'ich sinflar qo'shiq repertuaridan o'rin olgan.

O'qituvchi o'rgatish uchun qo'shiq tinglab olar ekan, uning badiiy asoslari, mazmuni obrazlar va kayfiyat doirasini sincheklab taxlil qiladi, murakkabliklarni bartaraf qilish metodlarini belgilab oladi.

Qo'shiq bilan o'quvchilarni tanishtirishdan oldin o'qituvchi qo'shiqning mazmuni, muallifi haqida so'z yuritadi yoki hikoya qilib beradi.

Masalan: bolalarga nima uchun ba'zi qo'shiqlar xalq qo'shiqlari deb atalishini bilish qiziqarli. O'qituvchi ularga qadimda qo'shiqlarni xalq to'qiganligini har bir qo'shiq shaharda taniqli qo'shiqchi, musiqachi bo'lib qo'shiq yaratishgan, cholg'u asboblari – doira, dutor, g'ijjak va boshqa asboblari

yasaganliklari, ularning ismlarini hozir xech kim bilmasada, qo'shiq va kuylari avloddan - avlodga o'tib, yashab kelayotganligi aytiladi. Ana shunday qo'shiqlardan bir «Boychechak» qo'shig'idir.

2 – sinf repertuaridan A.Mansurovning Qambar – ota she'riga bastalangan «Piyoda askarlar qo'shig'i» joy olgan bu qo'shiqni ko'rsatish oldindan o'qituvchi Vatan ximoyachilarining qaxramona kasb xaqida gapirib, ularda O'zbekistonim tuyg'ularini hosil qiladi. Bolalarda qo'shiqqa nisbatan ijodiy yondashuvni yuzaga keltirish maqsadida o'qituvchi ularga qo'shiq mazmuniga mos keladigan rasm, she'r tanlashni taklif qilish o'quvchilarda faollik uyg'otadi. Ba'zi hollarda suhbatini bolalarning hayotiy tajribalariga asoslangan holda ko'rish mumkin. Qo'shiq matnidagi ma'lum bir so'zlar tushuntiriladi.

Masalan: S.Abralovning «Laylak qor» qo'shig'idaga «laylak qoru, laylak qor, Dehqonlarga kerak qor» satrini 1-2 sinf bolalari aniq tushunmagan bo'lishlari mumkin. O'qituvchi dehqonlarning mo'l hosil olishlarida qorning ahamiyatini soda qilib tushuntirib beradi.

Kiyingi bosqich – qo'shiqni ijroda ko'rsatish, o'qituvchi yangi qo'shiqni o'z ijrosida ifodali, badiiy tarida ko'rsatadi. Chunki faqat badiiy ifodali ijro qiziqish uyg'otadi. O'qituvchi birinchi bor ko'rsatishda qo'shiqning 1 bandini kuylash bilan chegaralanishi maqsadga muvofiq emas chunki bo'nda qo'shiq haqida to'liq tushuncha bermaydi, yetarli qiziqish uyg'otmaydi.

Qo'shiq tanlangandan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan suxbatlashadi, savollariga javob beradi, o'quvchilarning qo'shiqqa bo'lgan munosabatlariga ta'sir etadi.

Qo'shiq o'rgatish musiqiy badiiy jarayon bo'lib, uning birinchi lahzasidanoq emosionallik, onglilik, badiiylik va mahorat uyg'unlashadi. Qo'shiqni badiiy tomondan yaratib berish – o'rgatishning asosi bo'lib, kuylash masalalarini o'ziga bo'ysundiradi.

Qo'shiqni ko'rsatishdan so'ng o'qituvchi uni o'rgata boshlaydi. Agar asar qisqa oddiy bo'lsa («Chittiy gul», «Oq terakmi, ko'k terak», «Oftob chiqdi olamga») uning kuy va matnini darrov o'rganish mumkin. Murakkabroq

qo'shiqlarni jumalarga bo'lib, ikki yoki uch dars davomida o'rgatiladi. Qo'shiq ustida ishlash metodlari turlicha bo'lishi, bunda bolalar oldiga har gall ma'lum bir vazifa qo'yilishi lozim va ular bunga erishishlari lozim («tovushni cho'zish», «so'zlarni buro aytish», «ifodali kuylasa»).

Bu aytilganlarni misolda ko'rib chiqamiz

1. sinfning 1 choragida N.Norxo'jayevning «Nevaralar qo'shig'i»ni o'rgatishda biz bolalarga birinchi tovushni diqqat bilan eshitib «Nevaramiz, chevaramiz» jumlasini aniq kuylab beriglarini so'raymiz, keyin shu jumlaning bir necha guruxlarga bo'lib qaytartiramiz. Oldin band, keyin nahorat o'rgatiladi. O'qituvchi bilan navbatma – navbat kuylash usulidan foydalanish mumkin.

Qo'shiq juda mayin, kuychan ijro etiladi. Birinchi darsda 1-kupletni band – naqoratni o'rgatish bilan kifoyalanish mumkin keyingi darsda o'quvchilarga qo'shiq bandi va naqoratini bir mustaqil tushirib, biron bir to'g'inda kuylashni taklif qilamiz. («m», «du»).

«Band», naqorat tushunchalarini mustaxkamlash maqsadida bir guruxga yoki bir o'quvchiga bandini, xorga esa naqoratni kuylatamiz bunda bolalar «yakkaxon», «xor» tushunchalarini o'zlashtiradilar.

O'quvchilarni individual tekislash uchun «zanjirli kuylash» usulidan foydalanish mumkin, ya'ni har bir jumlaning bittadan o'quvchi qo'ituvchi ko'rsatmasi bo'yicha kuylaydi.

Musiqada darslarida ish samaradorligini oshiradigan usullardan biri bolalarni kuylashga o'rgatish jarayonida individual (yakka) ishlashdir.

O'qituvchi doimo bir – biri bilan bog'liq ikkita masala ustida ishlaydi: 1 sinfni xor jamoasi sifatida tarbiyalab, unga badiiy va texnik malakalari singdirish hamda har bir bolaga kuylash ovozini hosil qilishda yordam berishdir.

Shuning uchun muvofaqqiyatli vokal tarbiyasi amalga oshirishda o'quvchilarga individual yondashish prinsipini (tamoyilini) qo'llanilish muhimdir.

Individual yondashuv prinsipi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi.

- yaxshi o'zlashtirilgan qo'shiq ijrosida o'quvchilarni kuylatib tekshirib turish,

- passiv o'quvchilarga individual vazifalar berish qo'shiqning kuyini eshitib, uning xarakterini qo'l bilan «chizib berish»,

- ritmga qarab qo'shiqni topish;

Boshlang'ich sinflarda repertuardagi qo'shiqlarning olalar ongiga, yuragiga singib borishi, ularda bu asarlarga qiziqish, muxabbatning ortishi o'qituvchiga bog'liq. Chunki o'qituvchi bastakor bilan bevosita bolalar o'rtasidagi bog'lovchi «zanjir» deb atasak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirish uchun o'qituvchi darsga tayyorlanishida, xususan qo'shiq ustida jiddiy ish olib borishi lozimligi zaruriy holdir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Bu yoshdagi o'quvchilarni diqqat, xotira, idrok imkoniyatlari naqadar chegallangan. Shuni nazarda tutgan xolda o'qituvch qo'shiq o'rgatishda turli uslublardan keng foydalanishi lozim.

XULOSA

Boshlang'ich sinf musiqa darslarida ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash orqali o'quvchilar nafosatini shakllantirish mavzusidagi bitiruv madakaviy ishimni amaliy jixatdan xulosalash maqsadida Andijon shaxridagi 14-son umumta'lim maktabida bo'lib ulardagi nafosat darslarida bolalarni vokal va xor malakalarini shakllantirishda ikki ovozli qo'shiqlarini kuylash orqali o'quvchilarning qo'shiq kuylash malakalarini rivojlantirishga erishdim va quydagi xulosalarga keldim:

1. Ikki ovozli qo'shiqlarni o'rganishga kirishishdan oldin tayyorgarlik ishlar olib borish lozim bo' davrda ikki ovozli qo'shiq aytishga zamin xozirlanadi. Bir ovoz unisonda qo'shiq aytish va bu ish jarayonida hosil qilinadigan malakalar xudi shu zamni hozirlaydi.

2. Insonda qo'shiq aytishga xos o'zaro bog'liq malakalar quydagicha hosil qilinadi: musiqani zixin qo'yib tinglay bilish, uni xis etish tovosh baland pasligini tahlil qila bilish, eshitib nazorat qilish, musiqa xotirasi va uning turlaridan biri-tovush baland pasligini bilib eslab qolishdan iborat.

3. Ikki ovozli kuylash malakalarini hosil qilishni boshlang'ich sinfning 3 sinflarda boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu mashirlardan ko'zlanadigan asosiy ikki ovozli tovush yangrashining yaxshi soz bilan baravar uyg'un va ravon bo'lishiga erishishdir. Bunda o'qituvchi to'g'ri nafas olish, yaxshi tovush hosil qilish va yaxshi arteklasiya.

4. Ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash malakalarini shakllantirishda dastlab unisonda sof kuylash va sof ijroga erishilgandan keyingina ikki ovozli qo'shiqlarni o'rganishga o'tish muhimdir.

Yuqoridagi xulosalarga tayanib Boshlang'ich sinf musiqa darslarida ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash orqali o'quvchilar nafosatini shakllantirishga erishish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
2. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat T: O'zbekiston, 1994 y.
3. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir T: 1995 y.
4. I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va yashash – davr talabi T: 1998 y.
5. I.A.Karimov. «O'zbekiston mustaqillika erishish arafasida» - T:. O'zbekiston, 2011
6. O'zbekistonning istiqlol mafkurasi T: «O'zbekiston» 2003 y.
7. I-VI sinflarda «Musiqqa madaniyati» darslari dasturi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi T: «Sharq» nashriyoti matbaa konserti. 1999 y.
8. VII sinflarda «Musiqqa madaniyati» darslari dasturi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi T: «Sharq» nashriyoti matbaa konserti. 1999 y.
9. H. Nurmatov va «Musiqqa» boshqalar. Umumta'lim maktablari 1 – sinf uchun darslik. T: G'.G'ulom nashriyoti. 1998 y.
10. H. Nurmatov va «Musiqqa» boshqalar. Umumta'lim maktablari 2 – sinf uchun darslik. T: G'.G'ulom nashriyoti. 2001 y.
11. H. Nurmatov va «Musiqqa» boshqalar. Umumta'lim maktablari 3 – sinf uchun darslik. T; G'.G'ulom nashriyoti. 2001 y.
12. O.Ibrohimov va boshqalar. «Musiqqa» boshqalar. Umumta'lim maktablari 4 – sinf uchun darslik. T; G'.G'ulom nashriyoti. 2003 y.
13. A.Mansurov, D.Karimova. «Musiqqa» boshqalar. Umumta'lim maktablari 5 – sinf uchun darslik. T: G'.G'ulom nashriyoti. 2003 y.
14. Q. Mamtrov va boshqalar. «Musiqqa» 6 – sinf uchun darslik. T: G'.G'ulom nashriyoti. 2001 y.
15. J.Sadirova va boshqalar. Musiqqa» 7 – sinf uchun darslik. T: G'.G'ulom nashriyoti. 2001 y.

16. G. Sharipova va boshqalar. «Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari uchun metodik qo'llanma» T: Nizomiy nomli TDPU 2001 yil (1-2 sinf uchun).
17. E.Umarov va boshqalar «Estetika asoslari». T: Uzinkomsentr 2002 y.
18. G. Sharipova va boshqalar. «Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari uchun metodik qo'llanma» T: Nizomiy nomli TDPU 2001 yil (3-4 sinf uchun).
19. G. Sharipova va boshqalar. O'rta (5-7 sinflarda musiqa madaniyati darslari uchun qo'llanma. T: Nizomiy nomli TDPU 2001 yil.
20. I.Akbarov. «Musiqalug'ati». T: «O'qituvchi» nashriyoti 1997 yil.
21. H.Nurmatov «Musiqalug'ati va estetik madaniyati». T: Nizomiy nomli TDPU 1992 yil.
22. Sergeyev. I.S. «Osbenosti trebovaniy k uchetyu». T: Internet yangiliklari. Axborotnoma № 30 2004 y.
23. H.Nurmatov, Q.Mamirov, F.Halilov va Sh.Janaydarovlarning nomzodlik dissertasiyalari aftoreferatlari.
24. Ye.Gudkova va boshqalar. «Ashula darsi metodikasi». T: «O'qituvchi» 1973 y.
25. R.Qodirov. «Boshlang'ich sinfda ko'povozlik kuylash» T:«O'qituvchi» 1997 y

MUNDARIJA

Kirish.....	4
1.1. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining rejalashtirilishi.....	10
1.2. Umumta'lim maktablarida umum didaktik prinsiplarining turlari	19
2.1. Musiqa madaniyati darslarida talabalarning savodxonlik bilimini oshirish, ijrochilik qobiliyatlari, asboblarida chalib o'rganish.....	34
2.2. Musiqa madaniyati datslarida musiqalarni eshitish va qobliyatni o'stirish	38
3.1. Musiqa san'ati vositasidagi estetik tarbiyaning mohiyati va vazifalari.....	54
3.2.Qo'shiq quylash musiqiy – ta'lim tarbiyaning yetakchi faoliyati.	60
Xulosa	71
Foydalanilgan adabiyotlar.....	72